

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSTITETI

Qo'lyozma xuquqida

Alimxanova Nigoraxon Amil`evna

**Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatdoshlar kategorial semantikasining
pragmalingvistik aspekti**

**Mutaxassislik – 5A 220102
Lingvistika (ingliz tili)**

Filologiya magistri darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va
himoyaga tavsiya etildi
Kafedra mudiri
Galieva M.R.

Ilmiy rahbar
filologiya fanlari nomzodi
dotsent A.M. Qo'ldoshev

“ _____ ” _____ 2014 yil

TOSHKENT – 2014

Mundarija.

Kirish	3
I bob. Ingliz tilidagi fe`l so`z turkumi kategorial semantikasining ilmiy adabiyotlardagi tahlili masalasi.	13
1.1. Fe`lning grammatik mohiyati masalasining tahlili.	13
1.2. Fe`llarning morfologik va funktsional tasnifi.....	14
1.3. Fe`lning grammatik kategoriyalari.....	17
I bob bo`yicha xulosalar.	32
II Bob. Ingliz tilidagi sifatdoshlarning strukturaviy – semantik xossalari. ..	35
2.1. Til birliklarini tadqiq qilishning pragmalingvistik aspekti.	35
2.2. Ingliz tilidagi sifatdoshtar kategorial semantikasining pragmalingvistik aspekti.....	41
2.3. Sifatdoshli predikativ konstruksiyalarning pragmalingvistik jihatlari.....	51
II bob bo`yicha xulosalar	56
III Bob. O`zbek tilidagi sifatdoshlarning strukturaviy – funktsional xususiyatlari	57
3.1. O`zbek tilidagi sifatdoshtar kategorial semantikasining pragmalingvistik aspekti.....	57
3.2. Sifatdoshlarning leksik ma`nosi.	60
3.3. Sifatdoshlarning sintaktik funksiyasi.....	62
3.4. Sifatdosh aniqlovchilarining tarkibi.....	65
3.5. Sifatdosh aniqlovchilarda aniq va majhullik kategoriyasi.....	71
III bob bo`yicha xulosalar.....	76
Umumiy xulosalar.	78
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	85

Kirish

Tadqiqotning umumiy tavsifi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenta I.A. Karimovning 2012 yil 10 dekabrda PK-1875 sonli qarorida aytilganidek "Zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiyasi texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishni ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, hamda buning negizida, ularning jahon tsivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, halqaro xamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart – sharoit va imkoniyatlar yaratadi".¹

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab uning xorijiy mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalari yanada yuksalib bormoqda. Chet ellar bilan har jabxada bo'layotgan bunday aloqalar o'z navbatida xorijiy tillarni mukammal biluvchi, yuqori malakali mutaxassis - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Bu borada yurtboshimiz I.A. Karimov o'zining Fanlar Akademiyasi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvida ta'kidlaganlaridek, ilmu-fanning chinakam ravnaqiga erishish uchun tashqi dunyoga eshikni keng ochish kerak. Jahon fani yutuqlaridan vaqtida xabardor bo'lish tengsiz ahamiyatga egadir. Buning uchun har bir ilmiy xodim chet tillarni puxta egallashi zarur.²

Darhaqiqat, til vositasida axborot almashinuvi, o'zaro hamkorlik, kommunikatsiya yuzaga keladi. Ilm - fan, texnikaning gurkirab rivojlanishi va ilmiy - texnik axborotning kengayishi munosabati bilan tilshunoslik va tarjimaning amaliy ahamiyati ham oshdi. O'zbek tilida ingliz tili nazariy va amaliy grammatikasiga bag'ishlangan ishlarning etishmasligi, jumladan, ingliz va o'zbek tillarining o'ziga xos xususiyatlari (ya'ni, ingliz - o'zbek va o'zbek - ingliz tillari grammatik, stilistik, leksik qonuniyatlari) inobatga olinib yaratilgan qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunda umumiy tilshunoslik oldiga

mavjud muammolarning yechimini topish vazifasini qo'ymoqda.¹

Mavzuning dolzarbligi bir tomondan ingliz tili grammatikasining to'la tadqiq qilinmagan jihatlarini chuqurroq o'rganishga qiziqishning o'sishi bo'lsa, ikkinchi tomondan ingliz tilidagi sifatdoshlar kategorial semantikasi munosabatlarini ifodalovchi barcha vositalarni aniqlashga va ularni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarning yetarli emasligidadir.

Garchi, sifatdoshlar kategorial semantikasi o'tgan asrning o'rtalaridan ilmiy tadqiq qilina boshlaganligiga qaramasdan, shu paytagacha ham uning o'rganilishi keng tus olmagan. Xususan, ingliz tilida bu funktsional maydonni yaxlit tarzda o'rganishga bag'ishlangan birorta dissertatsiya yoki ilmiy maqola yo'q. Bunga sabab, balki uning tilda bajarayotgan funksiyasining boshqa kategoriyaning mulki sifatida qarab kelinishidadir. Chunki, masalan, hamon ayrim tilshunoslar fe'l va sifatdoshlar o'rtasidagi munosabatning ifodalanishini cheklab keladilar va boshqa kategoriyaning ajratilishiga zarurat ham sezmaydilar. Zero, munosabatini ifodalovchi boshqa leksik va sintaktik vositalar ham borki, ularning tizimlashtirilishi birdek nazariy grammatika uchun ham, amaliy grammatika uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ingliz tilidagi ko'pchilik sifatdoshlar kategorial semantikasini ifodalovchi vositalarning aniqlanmaganligi, tizimlashtirilmaganligi va o'rganilmaganligi, o'rganilganlari esa matn nuqtai nazaridan qaralmaganligi bu vositalarning hammasini hozirgi zamon tilshunoslik nazariyalari asosida kompleks holda tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Yuqorida bildirilgan fikr, mulohaza va holatlar tanlangan dissertatsion tadqiqotning nechog'li muhimligini va ishimizning umumiy tavsifini muayyan darajada belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi predikatilik munosabatlarini ifodalovchi vositalarning

¹ I.A.Karimov "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Xalq so'zi, 2012, 11-dekabr 1-bet

² I.A.Karimov. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi umumiy yig'ilishida so'zlagan nutqidan. "O'zbekiston ovozi" 1994 yil 9-iyul

soni va qo'llanilish ko'lami aniqlanadi. Ularning o'rganilish tarixiga kelsak, ingliz tili grammatikalarida ularning faqat ikkitasi haqida ozgina malumot berib o'tilgan. Unda ham ularga tizimlashtirilgan sifatdoshlar kategorial semantikasi predikativlik munosabatlarini ifodalovchi vosita sifatida qaralmagan.

Garchi R.O. Yakobson sifatdoshlar kategorial semantikasiga alohida kategoriya (xususan, fe'lga xos kategoriya) sifatida yondashgan bo'lishiga qaramasdan, u bu lingvistik hodisani alohida tadqiqot ob'ekti sifatida keng o'rganib chiqmagan.¹ Bunday fikrni uning izdoshlaridan, taniqli rus tilshunos olimi, A.V. Bondarko to'g'risida ham aytish mumkin. A.V. Bondarko, sifatdoshlar kategorial semantikasini alohida tadqiqot ob'ekti qilib olgani holda, P.O. Yakobson fikrlariga qisman tayanib, bu hodisani qardosh bo'lmagan rus va nivx tillarida qiyoslab o'rganib chiqdi va o'zining "Funksional grammatika" turkumiga kiruvchi sifatdoshlar kategorial semantikasi deb nomlangan kitobida bayon qildi.² Ammo, sifatdoshlar kategorial semantikasi turli terminlar ostida R.O. Yakobson, A.V. Bondarko va ularning boshqa izdoshlaridan oldin ham bir qator olimlar (dastavval, L. Blumfeld³ keyinchalik A.I. Smirnitkiy va D.A. Shetelling⁴ tomonidan ajratilgan va tadqiq qilingan. Ta'bir joizki, bu tadqiqotlar bir-biridan, avvalambor, sifatdoshlar kategorial semantikasining boshqa-boshqa terminlarda nomlanishi va olimlar tomonidan turli grammatik kategoriyalar tarkibida izlanishi bilan farq qiladi. Ya'ni, ularning tadqiqotlari aynan bir ob'ektga qaratilgan bo'lishiga qaramasdan, sifatdoshlar kategorial semantikasi va strukturasi turli grammatik voqealardan izlashgan. Masalan, ayrim olimlar sifatdoshlar kategorial semantikasini zamonning bir ko'rinishi deb hisoblashsa, ayrimlari tus deb hisoblagan.

Aytib o'tish kerakki, bugungi kunda deyarli hech qaysi ingliz tili nazariy va amaliy grammatikalarida sifatdoshlar kategorial va ulardan predikativlik munosabatlari o'qitish ob'ekti sifatida berilmagan va sintaktik munosabatning bu

¹ Yakobson R.O. O'sha asar. –M., 1972. – B 95-113

² Bondarko A.V. Общая характеристика семантики и структуры поля семантик потенциала. Теория функциональной грамматики: Введение. Аспектуальность. Временная локализованность. Наука. 1987, - 242b

³ Blumfeld L. Язык – М., Прогресс 1968. – 606 б.

⁴ Smirnitkiy A.I. Перфект и категория временной отнесенности. Иностр. языки в школе. 1955 №2 15-29 б

turi bo'yicha bir oz umumiy lingvistik ma'lumot ham keltirilmagan (B.S. Azar, R. Long, F.R. Palmer, R. Quirk et al., R. Murphy, N.C. Stageberg, Holt, Rinehart and Winston, H. Sweet, Ilysh, Khaimovich, Rogovskaya, Blokh, Kobrina, Barxudarov, Shtelling, Kaushanskaya, Ganshina, Vasilevskaya. E.M. Gordon, P. Krylova, K.H. Kachalova, E.E. Izrailevich va boshq.).

Dissertatsiya ishining ilmiy – tadqiqot ishlari, rejalari bilan bog'liqligi. Tanlangan mavzu O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy kengashi yig'ilishida tasdiqlangan va O'zDJTU ingliz tili grammatikasi va tarixi til va tarjima kafedrasining ilmiy yo'nalishdagi mavzulari bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi representatsiya maydonining tarkibini aniqlash, tahlilini amalga oshirish va tizimlashtirish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Sifatdoshlar kategorial semantikasining lingvistik mohiyatini ochib berish.
2. Tilshunoslikdagi sifatdoshlar kategorial semantikasidagi predikativlik munosabatiga bo'lgan qarashlarni tahlil qilish.
3. Sifatdoshlar kategorial semantikasi va undagi predikativlik munosabatini ifodalovchi vositalarini aniqlash mezonlarini tahlil qilish.
4. Sifatdoshlar kategorial semantikasi va predikativlik kategoriyasining boshqa tushunchalarni ifodalovchi, tavsiflovchi, aks ettiruvchi kategoriyalardan farqini va aloqasini ko'rsatib berish.
5. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial va ulardagi predikativlik munosabatini ifodalovchi barcha vositalar, ularning strukturasi, ma'nosi va qo'llanilishini aniqlash.
6. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi va kesimlik munosabatini ifodalovchi barcha vositalarning matn hosil qilish xususiyatini aniqlash.

7. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi va predikativlik munosabatini ifodalovchi vosita sifatdoshlar kategorial semantikasi maydonini hosil qilishini asoslab berish.

8. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasining reprezentatsiya maydonining tarkibini tasvirlash.

9. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi reprezentatsiya maydonini hosil qiluvchi birliklar o'rtasidagi sinonimik munosabatlarni ochib berish.

10. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasining ish – xarakatlar o'rtasidagi bir – paytilik munosabatini ifodalovchi vositalarii aniqlash va tahlilini keltirish.

11. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasining asosiy fe'l ish - harakatida oldin kelish munosabatini ifodalovchi vositalarii aniqlash va tahlilini keltirish.

12. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasining asosiy fe'l ish – harakatidan keyin kelish munosabatini ifodalovchi vositalarii aniqlash va tahlilini keltirish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasini grammatika, leksika va matn doirasida ilmiy tadqiq etish tadqiqot ob`ektini tashkil qiladi. Tadqiqot predmeti esa ingliz tilidagi sifatdoshlar kategorial semantikasi reprezentatsiya maydonini hosil qiluvchi grammatik, leksik va matn birliklaridir.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to'g'risidagi". "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" haqidagi qonunlari va boshqa me`yori xujjatlari olindi. Xorijiy mashhur tilshunoslar P.O. Yakobson, A.V. Bondarko, Yu.S. Maslov, I.P. Verxovskaya, I.I. Meshaninov. O. Espersen, E.V. Guliga. E.I. Shendels, V.G. Gak va boshqalarning asarlaridan lingvistik, metodologik asos sifatida foydalanildi.

Tadqiqotni olib borishda, shuningdek, yurtimiz tilshunos olimlari A.A.

Abduazizov. J.B. Bo'ronov, M.I. Rasulova va U.K. Yusupovlarning ilmiy ishlari muhim rol o'ynadi.

Tadqiqot metodlari sifatida transformatsion metod, ma'noni qismlarga bo'lish, bevosita tashkil qiluvchilarga ajratish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek unda lingvistik sharxlash usulidan ham foydalanildi.

Himoyaga qo'yiladigan asosiy fikr va xolatlar quyidagilardan iborat:

1. Sifatdoshlar kategorial semantikasi obyektiv dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar (umumiy ma'noda faktlar) o'rtasidagi payt jihatidan tartib munosabatlarining tilda aks etishidir.

2. Tildagi barcha sifatdoshlar kategorial semantikasi ifodalovchi vositalar birgalikda sifatdoshlar kategorial semantikasi maydonini hosil qiladi.

3. Har bir til, shu jumladan ingliz tili ham, sifatdoshlar kategorial semantikasi ifodalovchi vositalarga ega; bu vositalarni o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

4. Tilda sifatdoshlar kategorial semantikasi munosabatlarini ifodalovchi vositalarni tadqiq qilganda faqat leksik va grammatik satxlarnigina emas, balki matn jabxasini ham hisobga olish kerak.

5. Ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasining anglashilgan ish harakatlarning bir - paytlilik va turli - paytlilik munosabatlarini ifodalovchi grammatik (morfologik, sintaktik), leksik va leksikgrammatik vositalar mavjud.

6. Sifatdoshlar kategorial semantikasi ifodalovchi vositalar bir - birlaridan shakl, ma'no, ishlatilishi, stilistik yoki pragmatik belgilari bilan farq qiladi. Ularning ayrimlari bir - birlariga nisbatan sinonimik, antonimik munosabatda bo'lishi mumkin.

7. Sifatdoshlar kategorial semantikasi munosabati boshqa sintaktik ma'nolar bilan birga kelishi mumkin (sintaktik sinkretizm).

8. Sifatdoshlar kategorial semantikasi maydoni yadro (markaziy birliklar) va periferiya (chekka birliklar)ga ega.

9. Murakkab qurilmalar tarkibidagi sifatdoshlar kategorial semantikasi, xususan oldin kelish va qisman (oniy) bir paytlilik munosabatlarini, ifodalovchi

universal vosita sifatida xizmat qiladi.

10. Ko'zlangan (maqsad qilib olingan) va ko'zlanmagan (maqsad qilib olinmagan) kontekstual holatlarda sifatdoslar kategorial semantikasi reprezentatsiya holatlarini farqlash muhim va zarur.

11. Kontekstual realizatsiya bo'lgan joyda sifatdoslar anglatgan ish - harakatlarida aspektuallik elementlari ham bo'ladi.

12. Ko'p valentli fe'l deb gap tarkibida sintaktik jihatdan faqatgina ega bilan bog'lanadigan o'timsiz fe'llar tushuniladi.

13. Bir o'rinli yoki bir valentli fe'l deb gap tarkibida bir, ikki yoki uch to'ldiruvchi bilan sintaktik aloqaga kiruvchi o'timli va kauzativ fe'llar tushiniladi.

14. Gapda ko'p valentli fe'llarining o'ziga xos sintaktik o'rnining mavjudligi nutq nominatsiyasi ehtiyojlarining asosiy sharti hisoblanadi va mavhum modeldagi tarkibiy o'rinlarning nutqda faollashuvi voqelikning gapda ifodalanadigan alohida qismlariga predmet hodisaning bog'lanish jarayonining tashkiliy qismlari sifatida shakllanadi.

15. Ko'p valentli fe'llar, gap egasi va to'ldiruvchi sintaktik vazifasida keladigan ot referentining nutqiy nomlanishida ishtirok etadi, bunda u sintaktik konstruktsiya mazmunini, chegaralash vazifasini bajarishi lozim;

16. Gap sintaktik strukturasi tashkil qiluvchi etakchi elementlar va mazmunida ko'p valentli fe'llar bo'lgan konstruktsiyalarning belgilarini chegaralash vazifasi nutqda ob'ektni ko'rsatish usuliga va eng avval gap semantik kategoriyalari nuqtai nazardan xarakterlashga bog'liq.

Ma'lum holatlarda gapdagi belgilar tinglovchi fe'l semantikasida ko'p valentlilik ma'nosi borligini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi.

Bir valentli fe'llar qo'llanilganda belgilar faqat ega guruhining, chegarasini ko'rsatishi, so'zlovchining maqsadiga mos ravishda ega haqidagi axborotning ma'lum bir qismini bildirimi lozim;

6) Ikki valentli fe'llar gapda to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelgan so'zlar alohida belgisini ma'lum vaziyatda boshqa ob'ekt yoki nomdosh

predmetlardan ajratib ko'rsatadigan belgini ifodalab keladi. Nokauzativ ikki valentli fe'llar tavsiflangan fe'l guruhidagi barcha qismlariga xos bo'lgan belgilarni ko'rsatadi. Kauzativ xarakterdagi bir o'rinli yoki bir valentli fe'llari esa kichik guruhga ajratilgan belgini ifodalaydi.

7) Ko'p valentli valentli fe'llarining semantik hajmi u bilan birikadigan semantik funksiyalar tomonidan bajariladigan vazifalarga nisbatan befarq bo'lmaydi. Ehtimollik xususiyatiga ega bo'lgan qonuniyat mavjud bo'lib unga ko'ra ko'p valentli va bir o'rinli yoki bir valentli fe'llar kombinatorikasi qanchalik keng bo'lsa, ularning faollashtiruvchi vazifasini bajarish imkoniyati shunchalik kengayadi

Tadqiqotning **ilmiy yangiligi** quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi reprezentatsiya maydoni (makrokategoriyasi) mavjudligi aniqlandi;

2. ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi reprezentatsiya maydonining qismlari va ularni hosil qiluvchi vositalar va ular o'rtasidagi farqlar aniqlandi;

3. ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi reprezentatsiya maydoni qismlarining yadrosi va periferiyasi aniqlandi;

4. ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasidagi predikativlik munosabatini ifodalovchi vositalarning matn hosil qilish xususiyati ochib berildi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u bir tomondan ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi reprezentatsiya maydonini ifodalovchi vositalarning semantik, strukturaviy va funktsional jihatidan o'rganilishiga xizmat qilsa, boshqa bir tomondan esa ingliz tilshunosligidagi bir nazariy bo'shliqni to'ldiradi. Shuningdek, u leksik, grammatik va matn birliklari o'rtasidagi semantik munosabatlar nazariyasini boyitadi va sifatdoshlar kategorial semantikasi maydoni nazariyasini ilgari suradi. Bu nazariya boshqa tillarda ham sifatdoshlar kategorial semantikasi maydonini o'rganishda qo'l keladi deb o'ylaymiz.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi bo'yicha qo'llanmalar tayyorlash va ularni daryo jarayonida qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqotning natijalaridan "Ingliz tili nazariy grammatikasi" kurslarini o'qishda, "Ingliz tili amaliy grammatikasi" bo'yicha o'tkaziladigan darslarda hamda magistrlar uchun funktsional grammatikaning dolzarb masalalari, maydon nazariyasi bo'yicha maxsus kurs o'qishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning gipotezasi: til hodisalarini maydon nuqtai nazaridan yaxlit tarzda o'rganish orqali lisoniy kategoriyalar haqida mukammalroq va aniqroq natijalar olish mumkin; ingliz tilida sifatdoshlar kategorial semantikasi uni ifodalovchi markaziy hamda ikkinchi darajali vositalar mavjud; sifatdoshlar kategorial semantikasi funktsional - semantik maydonini hosil qilishda grammatik, va matn yaruslarining o'zaro bog'liqligi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning nazariy-amaliy ahamiyati shundaki, bir o'rinli va ikki o'rinli fe'llarning funktsional semantik jihatlarini atroflicha o'rganilishi ingliz tili nazariy grammatikasi sohasidagi tadqiqot va darslik adabiyotlarda mavjud bo'lgan ayrim nomutanosiblik va chalkashliklarni bartaraf qilish uchun qo'l keladi. Tadqiqot natijalari til tizimi lingvistik tahlilini, funktsional grammatika nuqtai nazaridan amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari taklif qilingan uslub va erishilgan nazariy xulosalar boshqa xulosalarni tekshirish uchun turtki bo'ladi.

Dissertatsiya materiallari va xulosalaridan ingliz tili grammatikasi, tarjima nazariyasi kurslari mazmunini qayta tuzishda foydalanish mumkin. Erishilgan natijalardan amaliy grammatika, og'zaki nutq darslarida foydalanish tavsiya etiladi. Binobarin ingliz tilidagi bir valentli va ikki valentli fe'llardan yaslangan sifatdoshlar semantikasi va kombinatorikasi xususiyatlarini egallash mumkin emas.

Ishning ilmiy jamoa sinovidan o'tkazilishi: Dissertatsiya mavzusi O'zDJTU – II ingliz filologiyasi fakultetida ishlanayotgan kompleks mavzuning tarkibiy qismi bo'lib, II - ingliz filologiyasi fakulteti ilmiy kengashi tomonidan

tasdiqlangan.

Dissertatsiyaning tuzilishi: Ish kirish, uch bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Kirish qismida mavzuning tanlanish sababi, muammoning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari belgilangan, hamda erishilgan natijalarining yangiligi, ulardan. nazariyot va amaliyotda foydalanish imkoniyati, dissertatsiyaning strukturasi kabilar haqida ma'lumot berilgan. Dissertatsiyaning birinchi bobida kognitiv tilshunoslikning antropotsentrizm paradigmasining tarkibiy qismi sifatida shakllanishi tarixi, kognitiv tilshunoslikning asosiy tushuncha va tamoyillari, terminologik apparati, asosiy yo'nalish va maktablari haqida gap boradi.

Birinchi bobda bundan tashqari kognitiv grammatikada til va nutq birliklarini tadqiq qilishga aloqador asosiy jarayonlar haqida gap boradi va mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilishadi.

Ikkinchi bobda bir valentli va ikki valentli fe'llardan yasalgan sifatdoshlarning funktsional xususiyatlarini o'rganish muammosini yuzaga kelishi, ularning umumlingvistik mohiyati, nazariy va amaliy maqsadi kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Uchinchi bob sub'yekt va ob'ekt ma'noli fe'llardan yasalgan sifatdoshlarning nutqiy muloqot jarayonida bajaradigan vazifalari, uning gap tarkibida tutgan o'rni va nihoyati, sub'yekt va ob'ekt fe'llarining gap strukturasi hosil qiladigan semantik konfiguratsiyalar bir ob'ektli, ikki ob'ektli va kuzatuv konstruktsiyalarning tabiati, ob'ekt va sub'yekt fe'llaridan yasalgan sifatdoshlar semantikasining gap strukturasi ta'siri atroflicha tahlil etilgan. Xulosa qismida bajarilgan ilmiy tadqiqotning natijalari umumlashtirilib, bo'lajak izlanishlar istiqboli rejalashtirilgan.

I Bob. Ingliz tilidagi fe`l so`z turkumi kategorial semantikasini ilmiy adabiyotlardagi tahlili masalasi.

1.1 Fe`lning grammatik mohiyati masalasining ilmiy adabiyotdagi talqini.

Fe`lning grammatik mohiyati haqida gapirganimizda shuni ta`kidlash mumkinki, fe`l mustaqil so`z turkumi bo`lib, harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi. Fe`l quyidagi xususiyatlariga ko`ra mustaqil so`z turkumi sifatida xarakterlanadi:

1. Xarakat, holat yoki jarayon sifatidagi leksik – grammatik ma`nosi
 2. O`ziga xos o`zak yasovchi quyidagi suffikslar (-ize, - en, - ify;) va prefikslarga (re-, over-, out-, miss-, un:) hamda leksik – grammatik so`z morfemalarga egaligi.
 3. Fe`l boshqa so`z turkumlariga qaraganda so`z o`zgartirish va so`z yasash borasida ancha rivojlangan bunga sabab uning bir qancha grammatik kategoriyalarga egaligidir.
 4. Fe`lning o`ziga xos tarzda bog`lanishi.
 5. Gapda turlicha sintaktik vazifalarda kela olishi.
- Fe`llar xarakat ma`nosini bildiruvchi so`zlardir.

Grammatikada xarakat ma`nosi juda keng bo`lib, *to sleep, to lie* kabi fe`llar ifodalaydigan xolatlarni, *to afraid, to admire* kabi fe`llar ifodalaydigan ruxiy o`zgarishlarni, *to blossom, to grow* kabi fe`llar ifodalaydigan biologik jarayonlarni va shu kabi xarakat va xodisalarni o`z ichiga odadi. Bularning hammasi o`ziga xos xususiy tomonlarga ega bo`lishi bilan bir qatorda, ularning hammasi uchun umumiy bo`lgan tomoni ham mavjuddir, ya`ni bularning hammasi zamon bilan bog`liq holda yuz beruvchi xodisalar bo`lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu xodisalarning hammasi *nima qilmoq?* so`rog`iga javob bo`ladi. Ularni bir guruhga kiritish va “fe`l” deb atashda ham xuddi ana shu xususiyati asos bo`lib hisoblanadi.

Fe`l mustaqil so`z turkumi bo`lib, u xarakat, holat yoki jarayonni, ya`ni ma`lum bir belgining paydo bo`lishi va o`zgarishi kabi xarakatni ifodalaydi. Fe`lga xos bunday ma`nolarning barchasi uni

boshqa soʻz turkumlaridan farqlashga yordam beradigan umumiy xarakter maʼnosiga borib taqaladi.

Yu.S. Maslov taʼkidlaganidek, feʼl vaqt davomida sodir boʻladigan belgini, xarakterning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan soʻz turkumi boʻlib hisoblanadi. Harkatning grammatik ahamiyatini keng maʼnoda tushunish mumkin. U nafaqat harakat va tom maʼnodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va maʼlum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini koʻrsatadi.

Masalan:

Armchair is a piece of furniture.

He wrote a letter.

He will soon recover.

Muhimi shundaki, feʼl oʻzila maʼlum bir vaqt davomida sodir boʻladigan harakatga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Bu xususiyatlar feʼlning shaxsli shakllarida (Finite) namoyon boʻladi va shuning uchun ham feʼl shaxsli shakllarinnng sintaktik vazifasi gapda faqat qism sifatida qoʻllanilishdan iboratdir.

Feʼlning soʻz oʻzgartirish tizimi boshqa soʻz turkumlariga qaraganda ancha boy va xilma-xildir. U nafaqat flektiv tillarga xos boʻlgan sintetik usulga ega, balki oʻzakka formantlar qoʻshilishi yoki analitik usulga ham egadir. Shuni taʼkidlash joizki, feʼl analitik shakllarga ega boʻlgan yagona soʻz turkumi hisoblanadi. Feʼllarning soʻz oʻzgartiruvchi tizimiga alohida eʼtibor qilsak, affiksatsiya usuli bilan yasaladigan suffiksli feʼllar ancha kamchilikni tashkil etishining va konversiya yoʻli bilan yasaladigan qoʻshma feʼllarning anchagina koʻpligining guvohi boʻlamiz.

Ingliz tilida feʼllar tashqi tuzilishiga koʻra grammatik kategoriyalari va sintaktik vazifalariga bogʻliq tarzda shaxsli va shaxssiz shakllarga boʻlinadi.

1.2. Feʼllarning morfologik va funksional tasnifi.

Feʼllarning morfologik va funksional tasnifi haqida toʻxtalsak, ingliz tilida mavjud boʻlgan feʼllarning barchasi maʼlum bir morfologik xususiyatlariga koʻra ikki guruhga boʻlinadi. Bu maʼlum bir morfologik xususiyat oʻtgan zamon

shakllarining va sifatdosh II ning yasalish usullari bilan bog'liqdir.

Birinchi guruhga to'g'ri fe'llar, ikkinchi guruhga esa noto'g'ri fe'llar kiradi. I.P.Ivanov, V.V.Burlakova va G.G.Pocheptsovlar o'zlarining «Теоретическая грамматика современного английского языка» kitobida bu ikki guruhni standart bo'lgan va standart bo'lmagan fe'llar guruhi deb ataydi.

Ingliz tilida fe'llarning yuqorida sanab o'tilgan ikki turidan tashqari yana bir guruhi mavjudki, ular aralash fe'llar deb ataladi. Ular ingliz tilida qolgan ikki guruhga nisbatan juda ozchilikni tashkil etadi. Ular to'g'ri fe'llardek yoki noto'g'ri fe'llardek yasalishi mumkin. Bunday fe'llarga *show*, *mow*, *sow*, *drive* va boshqalar kiradi. Ularning ayrimlari sifatdosh shaklda ikki ko'rinishni o'zlarida aks ettirishlari mumkin: *drive* - *drived* - *drived*, *driven*.

Fe'llarning funktsional tasnifi haqida gapirar ekanmiz, avvalo shuni ta'kidlash joizki, ularning funktsional jihatdan tasniflanishi fe'llarning gapda kesimning u yoki bu turi vazifasida kelishi bilan bog'liqdir. Fe'llarning bunday xususiyati bevosita leksik jihatdan to'liq ma'noga egaligining darajasidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra ular mustaqil va yordamchi fe'llarga bo'linadi. Mustaqil fe'llar leksik jihatdan to'liq qiymatga va mustaqil ma'noga ega bo'lib, ular ma'lum bir harakat yoki xolatni ifodalay oladi. Yordamchi fe'llar esa gapdagi kesim tarkibida sof grammatik vazifani bajaradi.

Yordamchi fe'llar o'z navbatida yordamchi va bog'lovchi fe'llarga bo'linadi. Yordamchi fe'llar fe'llarning analitik shakllarida sof grammatik komponent sifatida ishtirok etadi.

Yuqorida mustaqil fe'llar quyidagi xususiyatlariga ega: harakatni bildiradi, ya'ni mustaqil ma'noga ega bo'ladi va gapda uning biror bo'lagi sifatida kela oladi. Yordamchi fe'llar esa, harakatni bildirmaydi, ya'ni mustaqil ma'noni ifodalay olmaydi deb izoh berildi. Lekin, ingliz tilida butunlay yordamchi fe'lga aylangan, ya'ni mustaqil ma'nosini yo'qotib, faqat yordamchi fe'l sifatida qo'llaniladigan birorta ham fe'l yo'q. Ayrim mustaqil fe'llar yordamchi fe'l vazifasida qo'llaniladi va turli - tuman ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *to be* fe'lini olaylik, u mavjudlik ma'nosini

ifodalaydigan mustaqil ma`noli fe`l. Lekin, gapda u bog'lovchi vazifasida kelganda yordamchi fe`l sifatida ishlatiladi: *He is an engineer.*

Ingliz tili grammatikasida yuqoridagi fe`llardan tashqari modal fe`llar ham mavjud bo`lib, ular agensning xarakterga bo`lgan munosabatini ifodalaydi. Bu munosabat o`z navbatida imkoniyat va majburiyat ma`nolaridan tashkil topadi. Bu esa modal fe`llarga xos asosiy grammatik ma`nolar hisoblanadi.

Fe`l anglatgan harakat va holatning ob`ektga bo`lgan munosabati turlicha bo`ladi. Bir xil fe`llar harakatning biror narsaga o`tganligini bildiradi. Ba`zi fe`llar esa xarakterning predmet – ob`ektga o`tmaganligini bildiradi. Shuning uchun ham fe`llar harakat va xolatning predmet – ob`ektga bo`lgan munosabatiga qarab ikki turga bo`linadi:

1) o`timli fe`llar va 2) o`timsiz fe`llar.

O`timlilik semantik-sintaktik kategoriya hisoblanadi. Uning semantik tomoni shundan iboratki, u fe`l bilan to`ldiruvchi o`rtasidagi ma`noviy bog`liqlikni ifodalaydi. Ingliz tilida ko`pchilik fe`llar to`ldiruvchisiz qo`llanilmaydi. Agar qo`llanilganda ham fe`l uning ma`nosini o`zgartiradi. O`timlilikning sintaktik tomoni shundan iboratki, u fe`lning aynan vositasiz to`ldiruvchi bilan bo`lgan munosabatini ifodalaydi.

Fe`l turkumiga xos kategoriyalardan o`timlilik va o`timsizlik doimo tadqiqot ob`ekti bo`lib kelgan. Shunga qaramay, bu hodisa hamon tilshunolar e`tiborini tortmoqda.

Bu borada qanchadan – qancha tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Ularning ushbu masala yuzasidan yuritgan fikrlariga nazar tashlasak, shu narsa ayon bo`ladiki, uning til satxlaridan qaysi biriga xosligi masalasi olimlarni o`ziga jalb qiladi. Bu kategoriya fe`l so`z turkumiga xos. Demak, u morfologik sath ob`ekti bo`lib hisoblanishi kerak. Ammo uning morfologik ko`rsatkichi mavjud emas. Shuning uchun o`timlilik va o`timsizlik ma`nosi fe`l asosining semantikasi bilan belgilanadi va fe`l ifodalagan harakatning ob`ektga bo`lgan munosabatini ko`rsatadi. Bu sintaktik sathda namoyon bo`ladi. Shunday ekan, bu kategoriya qaysi sath ob`ekta degan savol

tug'ilishi tabiiy.

Ko'pchilik tilshunos olimlarning fikricha, ma'lum bir fe'ldan anglashilayotgan xarakat sub'yektdan ob'ektga o'tsa va unga ta'sir qilsa bunday fe'llar o'timli fe'llar deb ataladi. Masalan:

Anvar is reading a book. Ne is eating an apple.

Bu misollardagi *to read, to eat* fe'llaridan anglashilayotgan harakat ushbu gaplarning ob'ektlari hisoblanmish *a book, an apple* so'zlariga o'tmoqda. Endi quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

Anvar is sleeping. He is coming.

Bu misollardagi *to sleep, to come* fe'llaridan anglashilayotgan xarakat sub'yektning o'zida qolmokda, shuning uchun ham bunday fe'llar ob'ekt talab etmaydi va ular sub'yektli fe'llar deb ataladi.

O'timli fe'llar doimo biror bir ob'ektни talab etadi, chunki o'timli fe'l gapda to'ldiruvchisiz ishlatilsa gapning ma'nosi noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun ham ularni ob'ektli fe'llar deb ataydi. Ingliz tilida o'timli fe'llar gapda S+V+Ob formulasi asosida namoyon bo'ladi. Ba'zi bir tilshunoslar o'timlilik va o'timsizlik kategoriyasiga maxsus to'xtalmaydalar va to'g'ridan - to'g'ri nisbat kategoriyasi bilan bog'lab tasvirlaydi.

1.3. Fe'lning grammatik kategoriyalari.

Fe'lning grammatik kategoriyalari xususida to'xtalganda shuni ta'kidlash kerakki, fe'l so'z turkumi boshqa suz turkumlariga qaraganda ancha boy va murakkab grammatik kategoriyalar tizimiga egaligi bilan ajralib turadi. Ingliz tili grammatikasida fe'l so'z turkumining grammatik kategoriyalari shaxs, son, aspekt, zamon, mayl va nisbat kategoriyalaridan iboratdir. Lekin, ba'zi grammatik tilshunoslar shaxs va son kategoriyasini fe'lning grammatik kategoriyalari qatoriga kiritish kerakmi yoki yo'q degan munozarali savolni ham o'rtaga tashlaganlar. Biroq, shaxs va son ategoriyasisiz fe'lning grammatik mohiyatini ochib berish mumkin emas.

Shaxs va son kategoriyasi fe'l so'z turkumiga xos bo'lib, bu kategoriya ichki paradigma asosida sodir bo'lib, fe'l shaxsli shaklining har qanday paradigmasida

mavjuddir. Ingliz tilida fe`llardagi shaxs va son kategoriyasi boshqa tillarga nisbatan unchalik keng taraqqiy etmagan. Negaki, mavjudlik ma`nosidagi fe`llardan tashqari barcha fe`llar shaxs va son shakliga ega emas va *came, stopped, looked* kabi fe`llar faqat gapning egasi bo`lmish olmosh yoki ot orqali shaxs va son ma`nosini olishi mumkin, ya`ni: *he came, the train stopped, they looked*.

Mavjudlikni ifodalaydigan fe`llar shaxs kategoriyasiga emas, faqat son kategoriyasiga ega: *was, were*. Bunday fe`llar hozirgi zamonda assimetrik paradigmani tashkil etadi, ya`ni birlikda birinchi va uchinchi shaxs shakli mavjud bo`lsa, ko`plikda esa shaxs shakliga ega emas: *am, is. are*.

Qolgan fe`llar esa uchinchi shaxs birlik ma`nosini beradigan yagona shaklga ega: *comes, looks*. Bunda morfologik paradigma mutlaqo assimetrik xususiyat kasb etadi. Bu erda - s qo`shimchasi ko`plik ma`nosini anglatmaydi, balki - s qo`shimchali birlik shakl ham mavjud. Ularda shaxsni ifodalovchi ma`no faqat olmoshlar orqali berilishi mumkin: I *look*. Fe`l shakllaridagi - s qo`shimchasi son kategoriyasini ifodalamasa shaxs kategoriyasini ifodalaydimi degan savol tug`ilishi tabiiy. Fe`llarning bunday shakllari shaxsni xam ifodalamaydi, chunki ingliz tilida uchinchi shaxsni ifodalaydigan va - s qo`shimchasiga ega bo`lmagan fe`l shakli ham mavjuddir. Shunday qilib, fe`lning - s qo`shimchali paradigmatic shakli o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Zero, biz inglizcha fe`l shakllarining gapdagi vazifasiga e`tibor qilsak, ularning ot bilan ifodalangan egaga nisbatan qarama -qarshi turganligini yaqqol ko`rish mumkin. Masalan, *the train stop-s; the train-s stop*.

Yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, ingliz tili fe`llariga xos bo`lgan shaxs va son kategoriyasi ayrim hollarda assimetrik tarzda parcha - parcha ko`rinishida namoyon bo`lishi mumkin ekan. Bu holat qadimgi ingliz tilidan hozirgi zamon ingliz tiliga qolgan me`rosdir. Yuqorida keltirilgan izohlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ingliz tili fe`l so`z turkumiga xos bo`lgan shaxs kategoriyasi faqat birgina holatda, ya`ni istak - hohish mayli noaniq hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik shaklida aniq namoyon bo`ladi, ya`ni infinitivga - s qo`shimchasi qo`shiladi: *writes*. Uchinchi shaxs shakli esa qolgan

barcha shaxs shakllariga qarama - qarshi turadi. Shunday qilib, noaniq hozirgi zamonda shaxs kategoriyasi faqat birgina holatda shaklan namoyon bo'ladi, ya'ni boshqa shaxslarda qo'shimchani mavjud emasligi ularning uchinchi shaxs birlik emasligini inkor etadi.

Ingliz tili fe'llariga xos bo'lgan son kategoriyasi haqida shunday xulosaga kelish mumkinki, u shaxs kategoriyasiga qaraganda ancha sust rivojlangan. Faqat noaniq hozirgi zamondagi – s qo'shimchali uchinchi shaxs shakli birlikni ifodlovchi birdan – bir unsurdir. Biroq, u birlikdagi barcha shaxslarga xos emas, shuning uchun ham u nafaqat ko'plik shakllarga nisbatan qarama – qarshi turadi, balki morfologik ifoda unsuriga ega bo'lmagan ayrim birlik shakllarga ham teskaridir.

Hozirgi va o'tgan zamonlarda *be* fe'li son kategoriyasiga ega, ya'ni bu fe'l birlik va ko'plikda bir - biridan farq qiladi: *am, is, are: was, were*.

Hozirgi zamon ingliz tili grammatikasida esa bu shakllarning juda kam qismigina saqlanib qolgan. Biroq, *be* fe'lining yordamchi fe'l va bog'lovchi fe'l tariqasida keng qo'llanilishi sababli shaxs va son kategoriyasi tilda kutganimizdan ko'proq ahamiyat kasb etadi. Aspekt va zamon kategoriyasi haqida to'xtalsak, ingliz tili fe'l tizimida zamon va aspekt ma'nolarini ifodalovchi shakllarning to'rt xil guruhi mavjud bo'lib, ular hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllarida o'z ifodasini topadi. Bular noaniq, davomli, perfektli va davomli perfektli aspektlardir.

Ingliz tili fe'l tizimiga xos bo'lgan zamon grammatik kategoriyasi harakatning nutq momentiga bo'lgan munosabatini anglatadi. Fe'llardagi zamon kategoriyasi materiyani mavjudlik shakli sifatidagi vaqtning aks etishidir. Harakat gapirilib turgan nutq momenti bilan bir vaqtda, nutq momentidan oldin va nutq momentidan so'ng sodir bo'lishi mumkin. Shunga muvofiq fe'llarda uch xil zamon shakli mavjud bo'lib, bular hozirgi zamon o'tgan zamon va kelasi zamon deb ataladi. Zamon grammatik kategoriyasiga berilgan bunday ta'rif har bir zamon shaklining nutq momenti bilan mos kelish zaruratidan kelib chiqqan bo'lib, materiyamizda sodir bo'ladigan barcha xil ish – harakatlar shu uch zamon

asosida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, nutq momenti zamon shakllari uchun asosiy nuqta bo'lib hisoblanadi.

Ingliz tili fe'llariga xos bo'lgan aspekt kategoriyasi ish - xarakterning vaqt davomida sodir bo'lish usuli va xarakterini ko'rsatadi. Bu shundan dalolat beradiki, aspekt kategoriyasi ish - xarakterning sodir bo'lish xarakterini zamon kategoriyasi bilan bog'liq tarzda aniqlovchi grammatik kategoriya hisoblanadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, inglizcha fe'l so'z turkumiga xos bo'lgan aspekt grammatik kategoriyasi tilda ikkilamchi vazifani bajarsa, zamon kategoriyasi esa birlamchi vazifani bajaradi. Bunday xolat aspekt shakllarining zamon shakllaridan ajralgan xolda alohida mavjud bo'la olmasligini ko'rsatadi.

Ingliz tili grammatikasida zamon va aspekt ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan fe'l shakllari "*Tense*" atamasi bilan ifodalanadi. Bu atama materiyaning mavjudlik shakli sifatidagi vaqtni ifodalovchi «*Time*» atamasidan farq qiladi.

Quyida biz noaniq aspektning hozirgi zamon, o'tgan zamon va kelasi zamonlardagi asosiy ahamiyatini qisqacha ko'rib chiqishga xarakter qilamiz.

Hozirgi noaniq zamonning (Present Indefinite) asosiy xususiyatlaridan biri nutq momentiga kiradigan ish - xarakterni o'zatishtan iboratdir. Ish - xarakter sodir bo'lishining o'zi xarakteriga ko'ra batamom xilma - xil bo'lishi mumkin. Xususan, *The earth rotates round its axis* misolidagi fe'l shakli davom etuvchi harakatni ifodalaydi. Negaki, *to rotate* fe'li tugallanmagan fe'l hisoblanadi. Endi quyidagi misolga e'tibor qilsak, *And in this reach, too, one first meets the seagulls and is reminded of the sea* gapida alohida tugallangan akt aks etgan. Chunki, *meet* fe'li tugallangan fe'l hisoblanadi.

Ingliz tili fe'l tizimidagi aspekt semantikasining bunday tarzda cheklanmaganligi shuni ko'rsatadiki, noaniq shakllar doimiy mavjud bo'lgan biror bir aspekt ma'nosiga ega bo'lmaydi. Kontekstlarda uchraydigan turli xil aspekt ko'rinishlari fe'lga xos bo'lgan aspektli xarakterning osongina aks etishini ko'rsatadi.

Hozirgi noaniq zamon doimo nutq momentidan kelib chiqadi. Hozirgi noaniq zamon qo'llanilishining asosiy holatlaridan biri tarixiy hozirgi zamon

(Historical Present) sifatida ishlatilinishidir. U ko'proq badiiy adabiyotlarda voqea - xodisalarni yanda jonli va chiroyli ifodlash uchun xizmat qiladigan stilistik usul sifatida qo'llaniladi.

Hozirgi noaniq zamon kelasi zamon ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bunday holat faqat aniq bir dastur yoki ma'lum bir reja haqida gap borganda sodir bo'ladi. Masalan, *I leave tonight*.

Shunday qilib, fe'llarga xos aspekt ma'nosining noaniq shakllari nutq jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat harakatning davom etishi, tugallanishi, qisqa davom etishi kabi xususiyatlar asosida namoyon bo'ladi.

Kelasi noaniq zamon (Future indefinite) ish - xarakatni nutq momentidan ancha keyin sodir bo'lishini anglatadi. Bu xolat ish - xarakatning davomiylik, tugallanganlik kabi xususiyatlariga bog'liq bo'lmagan tarzda amalga oshadi.

Kelasi noaniq zamon qo'llanilishining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi noaniq zamon shakllarining ergashgan qo'shma gaplarda kelasi noaniq zamon shakllari bilan birga ishlatilinishidir. Ya'ni ergashgan qo'shma gapning bosh gapida kelasi zamon shakli, ergashgan gapda esa fe'lning hozirgi zamon shakli qo'llaniladi. Ular vaqt ergashgan qo'shma gaplarda *when, before, after, until, as, soon as* kabi bog'lovchilar bilan, shart ergashgan qo'shma gaplarda esa *if unless, in case* kabi bog'lovchilar bilan birgalikda kelishi mumkin. Bunday xolatlarda hozirgi noaniq zamon shakllari kelasi zamon ma'nosini anglatadi.

O'tgan noaniq zamon (Past Indefinite) ish - xarakatni nutq momentidan ancha oldin sodir bo'lganligini anglatadi. Ish - harakatning ayni vaqtdan oldin sodir bo'lganligini yoki nutq momentigacha tugallanganligini ifodalash uchun vaqtni ifodalovchi *yesterday, long ago, in 1912* kabi leksik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Shu tariqa bunday shakllarning nutq momenti bilan muvofiqlashuvi nutq momentining xarakat sodir bo'lgan vaqtga nisbatan aloqasi yo'qligi bilan xarakterlanadi, shuningdek hikoya qilish vazifasini bajarishi bilan ajralib turadi.

Ingliz tilida fe`llarga xos bo'lgan sof zamon ma`nosiga ega bo'lgan noaniq shakllar inglizcha fe`llarning qolgan boshqa shakllari bilan taqqoslanganda harakatni nafaqat vaqt nuqtai nazaridan, balki xarakat sodir bo'lishining xarakteri nuqtai nazaridan baholaydi va ular aspektli zamon shakllari deb ataladi. Ularning umumiy xususiyatlaridan biri har bir shakllarida ma`lum bir zamonga xos ma`noning mavjudligi. Barcha zamon shakllari Indefinite shakllari singari harakat zamonini shakllantirishda sodir bo'ladi. Fe`llarning zamonga va aspekti zamonga xos bo'lgan shakllari o'rtasida munosbatni quyidagi jadval orqali shunday ifodalash mumkin:

Fe'llarga tegishli zamon va aspektli zamonga xos bo'lgan shakllarning jadvali

	Zamonlar	Zamonli shakllar	Davomli zamon	Tugallangan zamon	Tugallangan davomli zamon
A N I Q	Hozirgi zamon	ask(s)	am (is. are) asking	have (has) asked	have (has) been asking
N I S B A T	O'tgan zamon	Asked	was (were) asking	had asked	had been
	Kelasi zamon	shall (will) ask	shall (will) be asking	shall will have sked	-
	O'tgan kelasi zamon	should (would) ask	should (would) be asking	should (would) have asked	-
M A J H U L	Hozirgi zamon	am (is. are) asked	am (is. are) bering asked	have (has) been asked	-
	O'tgan zamon	was(were) asked	was(were) being asked	had been asked	-
N I S B A T	Kelasi zamon	shall (will) be asked	-	shall will have been sked	-
	O'tgan kelasi zamon	should (would) be asked	-	should (would) have been asked	-

Jadvalda ko'rsatilgan zamon turlarining har bir shakli tur ma'nosida asosiy mohiyat kasb etadi. Biroq, zamon turlarining har bir shakli amaliy jihatdan fe'lning tur xarakteriga bog'liq tarzda turli xil ma'nolarga ega bo'ladi.¹

¹ Iriskulov M.A., Kuldashv A.M. Theoretical grammar of the English language. Tashkent, 2008. 208 p

Zamon turlarining shakllarini tasvirlashdan oldin, avvalo ularga asosiy tavsif berish maqsadga muvofiqdir.

Davomli zamon shakllari *be* fe`lining shaxsli shakllari hamda tuslanuvchi fe`ning kerakli zamondagi sifatdosh I bilan birikishi orqali yasaladi. Ular nutqning ma`lum bir momentida haqiqatdan sodir bo`layotgan jarayonga o`xshash xarakatni ifodalaydi.

Tugallangan zamon shakllari *have* fe`lining shaxsli shakllari hamda tuslanuvchi fe`ning kerakli zamondagi sifatdosh II bilan birikishi orqali yasaladi. Bu zamon shakllarining asosiy ma`nosi ma`lum bir nutq momentidan oldin tugallangan: ish - xarakatni ifodalashdan iboratdir.

Tugallangan davomli zamon shakllari esa *be* fe`lining perfekt shakli hamda tuslanuvchi fe`ning kerakli zamondagi sifatdosh I bilan birikishi orqali yasaladi. Tugallangan davomli zamon shakllarining asosiy ma`nosi ma`lum bir nutq momentidan oldin boshlangan va tugallanishiga yaqin qolgan ish – xarakatni ifodalashdan iboratdir.

Hozirgi zamon turlarining davomli shakllariga nazar tashlasak, undagi fe`l ifodalayotgan xarakat qoidaga muvofiq nutq momenti bilan bevosita yaqinlikka ega. Bunday fe`l shakli ifodalayotgan xarakat jarayoni ish - xarakat sodir bo`lishi davomida doimo nutq momentini o`z ichiga oladi. Undagi xarakatning boshi yoki oxiri ko`pchilik hollarda ifodalanmaydi.

Hozirgi zamon turlarining davomli shakllari ifodalayotgan xarakatning sodir bo`lish vaqti odatda cheklangandek ko`rinadi. Masalan, quyidagi misolga e`tibor qilaylik.

The man is standing in the garden.

Bu gapdagi xarakat, to`g`rirog`i holat xuddi vaqtinchaga o`xshaydi. Bu gapni taqqoslash maqsadida yana bir misol keltiramiz.

The house is standing in the garden.

Bu gapda fe`l ifodalayotgan xarakat vaqtincha emasligini gapning mazmuniga qarab anglash mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi zamon turlarining davomli shakllari stilistik maqsadda xam qo'llanilishi mumkin. Bunday xollarda faqat jadal harakat nazarda tutiladi, ya'ni gapiruvchining sub'yektiv – emotsionnal munosabati namoyon bo'ladi. Masalan:

People are always blaming their circumstances for what they are.

Shuningdek, hozirgi zamonning davomli shakllari yaqin kelasi zamon ma'nosini ham berishi mumkin. Bunday hollarda gap tarkibida albatta, vaqt holining ishtirok etishi shart. Masalan:

They are coming tomorrow

Hozirgi zamonning davomli shakllari turli xil gaplar tarkibida, ayniqsa sodda gaplar tarkibida ko'plab uchraydi. Ularning juda keng qo'llanilish doirasi ko'chirma gaplardir.

Masalan:

“Where is Mr. Praed now?”

“He is drowing my mother and Bessie to the station”

Ingliz tilidagi tugallangan zamon (Perfect) asosiy zamon turlaridan bo'lib, sof zamon ma'nosiga egadir. Hozirgi zamon perfektining turga xos asosiy ma'nolaridan biri ish - harakatning nutq momentiga nisbatan tugallanganligidir. Perfektning vaqtga xos bunday ma'nosi xarakatning nutq momenti davri ichida sodir bo'lishidan iboratdir.

Ingliz tildagi fe'l so'z turkumiga oid bo'lgan o'ziga xos xususiyatlardan biri shundaki, tugal ma'noga ega bo'lgan barcha harakatlarning hammasi ham o'tgan zamonga tegishli bo'lavermaydi.

Harakatning tugallanganligini aks ettirishda o'tgan zamonning noaniq shakllaridan foydalaniladi. Ammo ba'zi xollarda harakatning tugallanganligiga qaramasdan, gapning kesimi hozirgi zamon bilan bog'liq bo'ladi. Bunda xarakat sodir bo'layotgan vaqtning tugallanganligini ifodalovchi ko'rsatkich tushib qoladi va gapdagi ish - xarakat hozirgi zamon ma'nosiga taaluqli bo'lib, perfekt orqali ifodalanadi. Perfektda nutq momenti bevosita xarakat momentiga kirmaydi. Lekin, xarakat nutq momenti davriga kiruvchi vaqt davomida sodir bo'ladi. Masalan, *Ne*

has arrived gapida gapiruvchi boshqa bir shaxsning kelishi haqida tugallangan xarakat sifatida xabar bermoqda. Bunday hollarda perfekt shakllarining qo'llanilishi xarakat sodir bo'layotgan vaqt nutq momentiga nisbatan tugallanmaganligini ko'rsatadi va shunga ko'ra fe'lining bunday xolati hozirgi zamon turlariga kiritiladi. Bu misolga qarama – qarshi tarzda *He arrived yesterday* gapini oladigan bo'lsak, unda xarakat sodir bo'layotgan vaqt tugallangan va shuning uchun ham bu gap o'tgan zamonga tegishlidir.

Perfektning yana bir muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u xikoya qilish vazifasiga ega emas. Chunki u yagona haraktni aks ettiradi. Bu zamon birin - ketin xikoya qilinayotgan harakatni qo'llashda ishlatilmaydi.

Mayl kategoriyasi harakat bilan sub'yekt orasidagi aloqaning voqelikka munosabatini ko'rsatadi. Bu aloqa va munosabatning turlicha bo'lishidan maylning ham bir necha turi bo'ladi va har bir turga xos ma'nolar maxsus shakllar orqali ifodalanadi.

Mayl shakllari fe'llar orqali beriladigan modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu modal ma'nolar reallik, faraz, ikkilanish, istak - xoxish kabi ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Mayl kategoriyasi boshqa tillardagi kabi hozirgi zamon ingliz tili fe'l tizimida ham fe'lining gapda kesim vazifasida keladigan shaxsli shakllarigagina xos kategoriyadir. Ingliz tili grammatikasida maylning uch xil turi mavjud: aniqlik mayli, buyruq mayli, istak - hohish mayli.

Aniqlik mayli real borlikka mos keladigan xarakat va holatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu mayl fe'llarning barcha zamon turlarini o'z ichiga oladi. Bu zamon turlari sodir bo'layotgan, sodir bo'lgan va sodir bo'ladigan xarakat yoki xolatdan iborat. Gapiruvchi aniqlik mayli shakllaridan foydalangan holda real xarakatni nazarda tutib xabar beradi va fe'l shakllari orqali xarakatning borliqqa bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Aniqlik maylining modallik ma'nosi xarakat realligini shu xarakat haqidagi xabardan uzoqlashmagan holda ko'rsatishdan iboratdir.

Buyruq mayli biror bir xarakatni bajarishga undan ma`nosini ifodalaydi. Ma`lum bir harakatni amalga oshirishga undosh ma`nosi buyirish ta`qiqlash iltimos kabilardan iborat bo`lishi mumkin.

Hozirgi zamon ingliz tilida fe`llarning buyruq mayli shakli fe`llarning infinitiv shakli bilan o`xshash bo`ladi. Faqat infinitiv shakldagi *to* yuklamasi buyruq maylida tushib qoladi. Masalan: *to place - Place!*

Buyruq maylining inkor shakli aniqlik maylining hozirgi noaniq va o`tgan zamon shakllari kabi *do* yordamchi fe`li orqali yasaladi. Masalan; *Do not tell him about it.*

Buyruq qilish va iltimos qilish ma`nosini kuchaytirish uchun buyruq maylining emfatik shakli qo`llaniladi. Bu *do* fe`li orqali yasaladi. Masalan : *Do drop calling to Billy in public. Trench.*

Bu gapda *do* fe`li kuchaytirishning yordamchi vazifasini bajarib, emotsional munosabatni yanada kuchaytirishga yordam bermoqda.

Istak – hohish mayli faraz qilinadigan, mumkin bo`ladigan, hoxlanadigan harakatni, ya`ni real borliqdagi xarakterlarga zid keladigan xarakatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Istak - hoxish mayli hozirgi zamon ingliz tilida sintetik va analitik shakllarda o`z ifodasini topadi. Istak - hoxish maylining sintetik va analitik shakllari fe`lning boshqa fammatik kategoriyalarini (masalan, zamon va tur kategoriyalarini) ifodalash uchun xizmat qiladigan sintetik va analitik shakllardan farq qiladi. Fe`lning boshqa analitik shakllari hozirgi kunga qadar ancha rivojlangan, ya`ni qadimgi ingliz tilidagi fe`lga xos ko`pchilik fammatik ma`nolar boshqacha ifoda vositalari bilan berilgan. Lekin, istak - hoxish maylining analitik va sintetik shakllari bundan mustasno, ya`ni qadimgi ingliz tili grammatikasida istak - hoxish maylining analitik va sintetik shakllari qanday bo`lsa, hozirgi kunda ham xuddi shunday ko`rinishga ega. Masalan, quyidagi jadalda istak - hoxish maylining sintetik shakllariga e`tibor qilaylik.

<i>To be</i>	<i>To be</i>	<i>To give</i>
Hozirgi zamon	O'tgan zamon	Hozirgi zamon
<i>I be</i>	<i>I were</i>	<i>I give</i>
<i>Ne, she. it be</i>	<i>He. she. it were</i>	<i>He. she. it give</i>
<i>We be</i>	<i>We were</i>	<i>We give</i>
<i>You be</i>	<i>You were</i>	<i>You give</i>
<i>They be</i>	<i>They were</i>	<i>They give</i>

Bu jadvaldagi *be* va *were* shakllari hozirgi va o'tgan zamon shakllari hisoblanadi. Bu ikki xil shakl o'rtasidagi farq aslida zamonlar bilan bog'liq emas, balki ular modallik ma'nosida farq qilmoqda. Chunki, *be* mumkin bo'lgan xarakatni ifodalasa, *were* esa real bo'lmagan, ikkilangan xarakatni ifoda etadi.

Nisbatan kategoriyasi xususida gapirar ekanmiz, unga shunday izoh berish mumkinki, fe'lga xos nisbatan kategoriyasi sintaktik konstruktsiya tomonidan ifoda etilgan vaziyatning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat xarakteri va uning yo'nalishini ko'rsatadi. Nisbat kategoriyasining tilda mavjudligi odatda fe'lning aniq nisbat shakllarini majhul nisbat shakllariga qarama - qarshi quyish yo'li bilan aniqlanadi. Bu asosiy fe'lning sifatdosh II shakli, ya'ni *be* - *Ven* yordamida ifodalanadi. Bunday qarama - qarshi qo'yishda majhul daraja oppozitsiyaning belgilangan, ya'ni ifodali va kuchli a'zosi hisoblanadi. Majhul daraja sintaktik qurilma egasi tomonidan ish - harakatni o'ziga qabul etishni ifodalaydi. Bu qurilmalardagi ega majhul yoki passiv ega deb yuritiladi va ish - harakatning ob'ekta vazifasini o'taydi. Aniq nisbat shakli bu oppozitsiyaning kuchsiz a'zosi bo'lib, mazkur ma'noni umumlashtirgan holda nomajhullik tarzida ifoda etadi.

Ingliz tilida fe'llarning majhul nisbat shaklida ishlatilinish ko'lemi ancha kengdir. Jumladan, ingliz tilida o'zbek tilidagidek faqatgina o'timli fe'llar emas, balki o'timsiz fe'llar ham majhul nisbat shaklida ishlatilaveradi. Masalan:

Tot has just been rung up by the police.

Tomga hozirgina politsiyadan qo'ngiroq, qilishdi.

The diplomat was refused transit facilities through London.

Diplomatga London orqali o'tishga ruxsat berilmadi.

Birinchi gapda ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tilida birgalik nisbat shaklida berilyapti. Ikkinchi gapda esa ingliz tilidagi majhul daraja shakli o'zbek tilida ham saqlanmoqda. Quyidagi gapga e'tibor qilaylik:

She was undisturbed by the frown of his face.

Yigitning yuzidagi g'azab ifodasi qizni bezovta qilmadi.

Bu gapda majhul nisbat ifodasi uzlik nisbat shakli orqali ifoda etilmoqda. Shuningdek, ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tiliga tarjima qilinganda birgalik nisbati yoki aniqlik nisbati orqali ham berilishi mumkin. Masalan:

Have you ever been told that you were good looking?

Sizga hech mahal "siz juda istarangiz issiq" deb aytishmaganmi?

Yuqorida biz to'ldiruvchi bilan ishlatiladigan ayrim fe'llarning majhul darajada ishlatilinishini kuzatdik. Ammo shu turdagi barcha fe'llar ham passiv shaklda ishlatilavermaydi. Masalan, holatni bildiruvchi fe'llar, ya'ni *to have, to belong, to cost, to resemble, to fail, to misgive* kabi qator fe'llar majhul darajada ishlatilmaydi. Shunga ko'ra fe'llar ikki katta guruhga bo'linadi:

- 1) majhul - daraja shaklida ishlatiladigan fe'llar;
- 2) majhul daraja shaklida fe'llar;

Agar ingliz tilida fe'llarning katta bir qismi majhul nisbat shaklida ishlatilmasligi e'tiborga olinsa, nisbat kategoriyasini ingliz tilida fe'llarga mansub grammatik kategoriya deb aytishga asos yo'qdek tuyuladi. Chunki agar nisbat kategoriyasi oppozitsiyasi ikki a'zodan - aktiv va passiv a'zodan iborat bo'lishi va katta bir guruh fe'llarda bu oppozitsiya neytralizatsiyaga uchrashi nazarda tutilsa, bunday grammatik kategoriyaning tilda mavjud grammatik kategoriyalar orasidagi o'rni haqida o'ylab ko'rishga to'g'ri keladi. Chunki aktiv shaklning faolligini isbotlash uchun uni passiv shaklga solishtirish kerak, shunda aktiv shaklning passiv shaklga o'xshaganligi uni aktiv deb aytishga asos bo'ladi.

Aktiv - passiv oppozitsiyasi ishlamaydigan, ya'ni neytrallashtirilgan bu o'rinlarda, umuman, nisbat haqida gapirilmasa ham bo'ladi. Ammo ingliz

tilidan farqli o'laroq, o'zbek tilida bu kabi fe'llar va boshqa barcha fe'llar nisbat kategoriyasi orbitasidan chiqib keta olmaydi, chunki, birinchidan, bu tillarda nisbat kategoriyasi ko'p a'zoli oppozitsiyaga ega. Ikkinchidan, agar a'zolar soni ko'p bo'lsa, buni oppozitsiya deb nomlash qiyin.

Ingliz tilida bu masalaga bir oz oydinlik kiritish zarurati tug'ildidiki, bu narsa ingliz tilining hozirgi holatida bu til morfologik strukturasi bilan bir oz kambag'alligi bilan izohlanadi. Shuning uchun bunda oppozitsiya aktiv - passiv shaklida emas, balki nopassiv - passiv shaklida bo'ladi. Chunki passivda ishlatilmaydigan fe'llar o'zining leksik - grammatik xususiyatlariga ko'ra boshqa barcha kategorial shakllarga ega va to'liq paradigmani hosil qiladi.

Masalan:

takes - goes

is taking - is going

has taken - has gone

Shuning uchun nopassiv ma'nolarning ayrimlari, yuqorida biz aytib o'tganimizdek, sintaktik yoki leksik yo'l bilan ifodlanadi.

The door opens inside room - Eshik ichkariga ochiladi

Bu o'rinda *opens* fe'lining nisbatga tegishliligi o'zbek va ingliz tillarida turlicha baholanadi. Ingliz tilida shakli aktiv bo'lgani bilan ma'nosi aktiv nisbat ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Ma'nosi passivga yaqinroq keladi, lekin shakli to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun bu kabi xollar ingliz tilida *middle voice* - o'rta nisbat deb yuritiladi. Masalan:

The magazine does't sell well - Jurnal yaxshi sotilmaydi.

Bundan tashqari, majhul darajada qo'llaniladigan va qo'llanilmaydigan fe'llar o'rtasidagi chegara ham juda nisbiydir, ya'ni majhulda ishlatilmaydi deb hisoblanadigan fe'llar nutqda majhul shaklda ko'rinib qolishi mumkin. Masalan:

The bed had not been slept in.

The house seems hot to have been lived in for a long time

Shunday qilib, ingliz tilida passiv shakllar potentsial jihatdan barcha

fe`llar bilan qo`llanilishi mumkin. Ammo uni nutqda ifodalashda ayrim cheklash bo`lishi mumkin. Ingliz tili nisbat paradigmasi quyidagi ko`rinishga ega:

<i>Active</i>	<i>Passive</i>
1. Present Indefinite	1. Present Indefinite Passive
2. Past Indefinite	2. Past Indefinite Passive
3. Future Indefinite	3. Future Indefinite Passive
4. Present Continuous	4. Present Passive
5. Past Continuous	5. Past Continuous Passive
6. Future Continuous	6. Future Continuous Passive
7. Present Perfect	7. Present Perfect Passive
8. Past Perfect	8. Past Perfect Passive
9. Future Perfect	9. Future Perfect Passive
10. Present Perfect Continuous	10. -
11. Past Perfect Continuous	11. -
12. Future Perfect Continuous	12. -

Tabiiyki, nega davomli shakllarning perfektiv aspektida shakllari yo`q? Nega normativ grammatikalarda davomli formalarning passiv shakli inkor qilinadi degan savollar tug`ilishi mumkin.

Gap shundaki, ingliz tilida *to be* fe`li polifunksional aktiv va nutqda eng ko`p uchraydigan fe`l hisoblanadi. Mana shu fe`l passiv shaklni yasashda ham, davomli shakllarni yasashda ham ishtirok etuvchi asosiy yordamchi fe`l - sanaladi.¹ Davomli passiv shakllarni yasashda *to be* fe`li ikki marta ishlatilindi. Masalan: *The patient is being examined* yoki *The patient has been being examined*.

Yordamchi fe`llarning bu qadar ko`p, keragidan ortiqcha ishlatilishining oldini olish maqsadida Future Continuous Passive hamda Perfect Continuous Passive shakllar nutqda bir oz soddalashtiriladi va Future Continuous Passive urniga Future Indefinite Passive va Perfect Continuous shakllari o`rniga Perfect Passive shakllari ishlatilindi.

¹ Bo`ronov J. Ingliz va O`zbek tillarining qiyosiy grammatikasi. T. O`qituvchi, 1974 y. 208 b.

I bob bo'yicha xulosalar.

Fe'l shaxssiz shakllarining o'ziga xos xususiyatlari. Fe'llarning shaxsli shakllari gapda doimo kesim vazifasini o'taydi, shaxssiz shakllari esa gapda turli xil gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin, lekin hech qachon kesim vazifasida qo'llanila olmaydi. "Shaxssiz" degan atamadan ham ko'rinib turibdiki, ular shaxs grammatik kategoriyasiga ega emas, shuningdek, son va mayl kategoriyalari ham ularda mavjud bo'lmaydi.

Fe'l asosan gap qurilmasida shaxs bilan moslashmaganligi tufayli infinitiv yoki fe'lning noaniq shakliga, gerundiy hamda sifatdoshlarga ya'ni hozirgi va o'tgan zamon sifatdoshlariga bo'linadi. Fe'lning shaxssiz shakllarini o'ziga xos xususiyatlaridan biri shaxs - sonda moslashmaganligi, zamon shakllarini gap qurilmasida mazmunga qarab berilishi, nisbat kategoriyasini bevosita bog'lama fe'llar bilan birikib shaxs bilan moslashmaganidadir.

Umuman olganda fe'lning shaxssiz shakllari fe'lning shaxsli shakllaridan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:


1. Ularning leksik - grammatik ma'nosi ikki xillik xususiyatga ega;
2. Ularning o'ziga xos morfemalari mavjud (*-ed (-ep); -ing; to...*);
3. Ularda boshqa ba'zi so'z turkumlari bilan bog'lanish xususiyati mavjud;
4. Ularning sintaktik vazifalari shaxsli fe'llarnikidan butunlay farq qiladi;
0. Ular grammatik kategoriyalarga ega emas.

Fe'llarning shaxssiz shakllari shaklan infinitiv (*to speak*), gerundiy (*speaking*), sifatdosh I yoki hozirgi zamon sifatdoshi (*reading*) sifatdosh II yoki o'tgan zamon sifatdoshi (*worked; spoken*)ga ajratiladi.

Infinitiv fe'lning noaniq shakllaridan biri bo'lib, u ot hamda fe'lga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Infinitivning bunday xususiyatlari uning gapdagi vaziflari bilan oydinlashadi, fe'lning ushbu shakli gapda ega, predkativ, to'ldiruvchi, aniqlovchi hamda hol vazifalarida kelishi mumkin. Infinitivda aspekt, zamon va nisbat kategoriyalari mavjudligi: *To speak - to be speaking; To have spoken - to have been speaking; To read - to be read; To have read - to have been read* kabi qarama - qarshilikda uchrashi mumkin.

Ingliz tilida infinitivli qurilmalar mavjud bo'lib, ulardagi unsurlarning sintaktik tahlili biroz munozaralidir. Masalan, Ob'ektivli infinitivli qurilmani (Objective with the Infinitive Construction) olib qaraydigan bo'lsak, *I want you to remember* gapidagi *you to remember* unsurlarini amaliy grammatikalarda murakkab to'ldiruvchi vazifasida kelgan deb ko'rsatiladi.

Ammo noan'anaviy tahlil usullaridan komponentlarga ajratib tahlil qilish orqali ko'rib chiqadigan bo'lsak unda boshqacha ko'rinish kasb etadi, ya'ni yuqoridagi misolda berilgan *you to remember* unsurlari bir - biriga yadro bo'lmagan predikativ aloqa asosida o'zaro bog'langanligi ma'lum bo'ladi. Yadro bo'lmagan predikativ aloqa yadro predikativ aloqaga qarshi qo'yiladi, u yunktsion modelda bir chiziq va ikki tomonidan ko'rsatkichlar orqali beriladi (\longleftrightarrow):



Ushbu fikrni sintaksemaparga ajratib tahlil qilish orqali ham isbotlash mumkin, u xolda bu quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

SbAg . PrAc . SbObAg . Pi As

Bunday amaliy grammatikada uchraydigan noaniqliklarni boshqa infinitivli qurilmalarda ham uchratish mumkin.

Sifatdoshlar (I, II) ham ikki xil leksik fammatik ma'noga ega bo'lib quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi: 1. Ularning ikki xil leksik fammatik ma'noga ega bo'lishi xarakat va xarakatning belgisini ifodalash bilan; 2. Nisbat kategoriyasiga egaligi bilan; 3. - *ed*, - *t*, - *ep* kabi suffikslar yordamida yasalishi bilan; 4. Ularning xarakat ob'ektini ifodalovchi ravish, ot va olmoshlar bilan birika olishi; 5. Gapda aniqlovchi (*Then one day we met two ghosts journeying through the silence*), to'ldiruvchi (*I saw him singing a song*) predikativ (*All of which was not encouraging*), kirish so'zlar (*Generally*

speaking, it would be useful to visit Britain again) va hol (*Leaning forward, he gave her the cigarette*) vazifalarida kelishi.

Gerundiy ham fe`lning boshqa shaxssiz shakllari kabi ikki xil xususiyatga ega bo`lib gapda quyidagi vazifalarda kelishi mumkin: Ega vazifasida (*Waiting was a strain*); predikativ vazifasida (*Living is working*); fe`l kesimning bir qismi vazifasida (*She couldn't help feeling well*); to`ldiruvchi vazifasida (*I like singing*); aniqlovchi vazifasida (*There was no need of going to the library*); payt xoli vazifasida kelganda after, before, on, in, at kabi predloglar bilan ishlatiladi (*After finishing her work she went out*), As an adverbial modifier of (b) manner. In this case prepositions by or in are used. Ex: The day was spent *in packing*. As an adverbial modifier of (c) attendant circumstances. Ex: She turned and groaned, but without *awakening*. As an adverbial modifier of (d) rifoee. Ex: *He entered the Institute for becoming a teacher*. As an adverbial modifier of (e) cause. Ex: *We talked in whispers for fear of disturbing the Smith's*. As an adverbial modifier of (f) condition. Ex: *He has no right, to come bothering you and papa without being invited*. Gerundiy va sifatdosh I bir xil shaklga ega bo`lishsa-da quyidagi xususiyatlariga ko`ra farqlanishi mumkin:¹ 1) Gapdagi vazifasiga ko`ra; Gerundiy esa bo`la oladi ammo sifatdosh I esa bu vazifada kela olmaydi; Ular ikkalasi ham hol vazifasida keladi, faqat gerundiy ushbu vazifada predlog bilan keladi. 2) Ularning ikki xil so`z turkumini o`zida majassamlashtirishiga ko`ra. 3) Gerundiy tarjimada xarakat nomi shaklida beriladi.²

¹ Irteyeva N.F., Barsova O.M., Blokh M.Y., Shapkin A.P. "Theoretical English grammar" Moscow 1969. 220 p.


² Khaimovich B.S., Roguvskeya B.I. "A Course in English grammar." Moscow 1967. 300 p.

II Bob. Ingliz tilidagi sifatdoshlarning strukturaviy – semantik xossalari.


2.1. Til birliklarini tadqiq qilishning pragmatik aspekti.

Lisoniy birliklarning aniq va voqeyiy muloqot sharoitida qo'llanishi pragmatik tahlil ob'ektidir. So'zlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi, nutqiy harakat muloqot matnini - talab qiladi va shu muloqot kontekstida mazmunga ega bo'ladi. Muloqot yuzaga kelishi uchun muhit bo'lishi darkor. Muhit, o'z navbatida, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy qatlam, guruhning madaniyati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ushbu guruhdagilar har xil anglashilmovchiliklar, ma'noviy ikkiyoqlamalik, noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradigan umumiy bilim zahirasi hamda muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlovchi qoidalardan foydalanish malakasiga ega bo'lishadi. Shunday malakaga ega bo'lmagan shaxs muloqotda hech qanday samaraga erisha olmaydi. Nutqiy muloqotda axborot uzatish «yuki», so'zsiz, lisoniy birliklar «elkasi»ga tushadi, ammo shaxslararo munosabat normasini, milliy - madaniy qadriyatlar tizimini egallamasdan turib, to'laqonli muloqotga kirishishning imkoni yo'q.

Xullas, kommunikativ faoliyat turli xildagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi, bulardan, masalan, lisoniy bilim til tizimi tuzilishi bilan bog'liq bo'lsa, *qomusiy bilim* esa voqelikni aks ettiradi va nihoyat, *interaktiv bilim* o'zaro munosabat asosida turgan, ijtimoiy guruh uchun umumiy bo'lgan qoidalar to'plamini bilishni taqozo etadi. «Lisoniy muloqot qobiliyati» deyilganda, xuddi shu bilimlar nazarda tutiladi. Interaktiv bilim muloqot ishtirokchilari uchun asosan bir xil darajada bo'lgani ma'qulroq, chunki fakatgina shu holatdagina yakdillikka, o'zaro bir - birini anglashga erishib bo'ladi.



Muloqotdoshlarning bir - birini tushunishi lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartidir.



Masalan, «*Choy tugabdi*», «*Sovuq*» jumllarini «*Choy damla*», «*Issqroq kiyin*» yoki «*Eshikni yop*» kabi mazmunlarida anglash uchun J.Serl aytgan shared background information (Searle 1979: 48), ya'ni «o'zaro umumiy va oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotga» ega bo'lish kerak.

Ammo bunday holatda va «orqa fon» da turadigan ma'no o'z - o'zidan paydo bo'lmaydi.

Asosiy muloqot birligi bo'lgan matnning umumiy tuzilishi, mazmuniy mundariyasi lisoniy birliklar kommunikativ ma'nosini shakllantiruvchi tajriba maydonidir. Yaxlit kommunikativ lisoniy tuzilma bo'lgan matnning semantik mundariyasi denotativ va signifikativ qismlardan tarkib topadi. Bulardan birinchisi matn mazmunining voqelikda kechayotgan xodisalar bilan bog'liq tomonlariga ishora qilsa, ikkinchisi esa, matn yoki nutq ijodkorining nutqiy tafakkur faoliyati bilan bog'liqdir. Tver (Kalinin) pragmalingsvistika maktabining vakili M.L.Makarov matn mazmuni tavsifiga «kommunikatorotsentrik» yondashuv tarafdorlaridan biridir. Mixail Lvovich o'z ustozini professor I.P. Susov izidan borib¹, matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari qatoriga *propozitsiya, referentsiya, eksplikatura, inferentsiya, implikatura, relevantlik, presuppozitsiya* kabilarni kiritadi.²

Matn mazmunining denotativ qismini tashkil qiluvchi propozitsiya va referentsiya xodisalari ilmiy adabiyotlarda ancha batafsil yoritilganligini e'tiborga olib,³ ularga yanada to'liqroq izoh berish ehtiyojini sezmayapman. Faqatgina shuni eslatmoqchimanki, propozitsiya bilimni etkazishning o'ziga xos shakli bo'lib, u axborotni to'plash va saqlashning kognitiv strukturalari qatoriga kiradi.⁴ Ammo propozitsiya hodisasi tahlilida uning axborot tashish xususiyati bilangina chegaralanib qolmaslik darkor. Zero, bu holda ushbu hodisaning kommunikativ belgilari nazardan chetda qoladi. Masalan, quyidagi nutqiy tuzilmalarni olaylik:

¹ I.P. Susov, M.Lvovich "English grammar" 1979, 151 p.

² Makarov M.L., "Kommunikatorotsentrik yondashuv" 2003, 119-137 b.

³ Nurmonov I., Mahmudov S. O'sha asar 1984, 31-80 b

⁴ Pankrats A.B. «Грамматика Английского языка» 1992, 15 b


- a) Anvar menga kitobni berdi
- b) Anvar menga kitobni beradimi?
- d) Anvar, menga kitobni ber!
- e) Ishonamanki, Anvar menga shu kitobni beradi (bergan).
- f) Anvar menga shu kitobni bergan bo'lishi kerak.

Bu qatordagi tuzilmalar (qatorni yana davom ettirish mumkin) yagona propositsiyaga ega, ya'ni «kitob», «Anvar», «men» term va aktantlari hamda «bermoq» predikati vositasida tuzilayotgan ushbu tuzilmalarning semantik strukturasi yagona, ammo ushbu propositsiya muloqot matnida faollashib turli pragmatik mazmun bilan boyiydi. Mazmunning kommunikativ maqsadiga binoan bunday kengaytiruvchi vositalar qatoriga modallik va zamon - aspekt ko'rsatkichlari ham kiradi.

Xuddi shuningdek, *referentsiya* hodisasi ham denotativ semantika doirasida talqin qilinadi va an'anaga binoan nomlovchi lisoniy birliklarning borlikdagi ob'ektga munosabati, uning bilan bog'liqligi sifatida tavsiflanib kelinmoqda. Aslida, lisoniy nomni voqelik bilan bog'lashda so'zlovchining (yoki lisonidan foydalanuvchi shaxsning) maqsadi, lisoniy faoliyat niyati muhim o'rin egallaydi.

4 – jadval

Kognitiv tilshunoslikning ayrim muammolari



Semasiologlar doirasida mashhur bo'lgan «Semantika» (Semantics) risolasining muallifi J.Layonzning qaydicha, so'zlovchi, referentsiya xarakterini bajarayotib, lisoniy iborani maqsadli tanlaydi va «referentsiyani aynan shu ibora mundarijasida ifodalaydi»¹. Diskursiv tahlil nazariyasi taraqqiyoti esa referentsiyami so'zlovchi yoki yozuvchi ijrosidagi bir tomonlama xarakterat natijasi sifatida emas, balki ikki tomonlama, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi ishtirokidagi «shaxslararo harakat» asosida hosil bo'ladigan lisoniy faoliyat turi sifatida talqin qilishga sabab bo'ldi (Makarov 2003: 122). Bizga ham bunday yondashuv ma'qul, chunki har qanday lisoniy faoliyat muloqot muhitini talab qiladi, lisoniy muloqot esa qanday ko'rinishda kechishidan qat'iy nazar, shaxslararo munosabatning namoyon bo'lishidir.

Nutqiy muloqot matnining kognitiv xususiyatga ega bo'lgan hodisalaridan yana biri *relevantlik* (*o'rinli, jo'yali bo'lish*) xodisasidir. Psixologlar Den Shperber va Der Dre Uilsonlar ushbu tamoyilni nutqiy muloqotning muvaffaqiyatli kechishini hamda muloqot matnining mazmundor shakllanishini ta'minlovchi hodisa sifatida qarashni taklif qilishadi (Shperber, Uilson 1988). Relevantlilik, birinchidan, o'ziga xos mazmuniy kogerentlilik bo'lib, nutqiy xarakterat ma'nosining matndan oldingi harakatlar ma'nosida mos kelishini talab qiladi. Ikkinchidan, ma'lum nutqiy tuzilma muloqot muhiti va matniga mos, o'rinli bo'lmog'i darkor va faqat shu holdagina tinglovchi uzatilayotgan axborotni tez va oson «hazm qila oladi». Shunga binoan tamoyil mualliflari o'rinlilik, jo'yalilik darajasini erishiladigan kontekstual natija bilan o'lchashni taklif qiladilar: «U yoki bu ehtimolning ma'lum matnda o'rinli ekanligi uning ushbu matnda kontekstual natijaga (samaraga) egaligi bilan belgilanadi»²

Quyidagi muloqot matnlarini solishtiraylik:

1. a) Mehmon: charchadim, endi tursak.
1. b) Mezbbon: charchagan bo'lsangiz osh tayyor bo'ladi.
2. a) Mehmon: charchadim, endi tursak.

¹ Lyons S. "Diskursiv taxlil nazariyasi taraqqiyoti" 1977, 177 b.

² Lyons S. "Diskursiv taxlil nazariyasi taraqqiyoti" 1977, 216 b.

2. b) Mezbon: Osh tayyor bo'layapti, suzimiz.


Tasavvur qilish (1.b) gapi vositasida muloqotda qanday natijaga, o'zaro hurmat bilan bog'liq qanday samaraga erishib bo'ldi?! Keyingi gap (2b) esa muloqot matni mazmuniga mos ohangda tuzilgan, shu sababli uning qo'llanishi kommunikativ natijaga olib kelishiga ishonish mumkin.

Keltirilgan misoldan relevantlikning mantiqiy tahlil vositasida aniqlanishi ko'rinib turibdi. Ammo bunday tahlil o'ta formal - deduktiv ko'rinishga ega bo'lishi hammaga ham ma'qul kelavermaydi, chunki matn propozitsiyalarini induktiv tahlil yo'li bilan, ehtimollar asosida ham ajratib olish mumkinligini unutmaslik lozim.

Turli mantiqiy - semantik amallar asosida mazmuniy xulosalarga erishishning yana bir yo'li so'zlovchi «nimani nazarda tutayotganligini» ehtimol qilish va anglashdir.

5 – jadval

Til birliklarining prgmalingvistik jihat



2.2. Ingliz tilidagi sifatdoshlar kategorial semantikasining pragmatik aspekti.

Ingliz tilida sifatdosh feʼlning shaxssiz formalaridan biri boʻlib, u ikki xildir - I sifatdosh va II sifatdosh. I sifatdosh «feʼl negiziga *ing* qoʻshimchasini qoʻshish bilan yasaladi, II sifatdoshning yasalishi esa feʼlning turiga bogʻliq: Agar feʼl toʻgʻri boʻlsa, oʻzakka - (e) d qoʻshimchasini qoʻshish bilan¹, agar feʼl notoʻgʻri boʻlsa unda *-en* qoʻshimchasi yordamida yoki tovushni oʻzgartish yoʻli bilan yasaladi. Hatto ayrim notoʻgʻri feʼllarning sifatdosh fomasini negiz bilan omonim boʻladi.¹ Masalan:

I sifatdosh	II sifatdosh
reading	helped
going	read (red)
helping	gone
buying	bought
	cut

Sifatdosh feʼllik belgilaridan tashqari, sifatlik yoki ravishlik belgilariga ham ega.

Sifatdoshning sifatlik va ravishlik belgilari u bajargan sintaktik funksiyalarda koʻrinadi. Bir tomondan, sifatdoshlar sifat kabi aniqlovchi va qoʻshma ot kesimning ot qismi vazifasida kelsa, ikkinchi tomondan, ular gapda ravish kabi hol keladilar. Masalan:

1) sifatdosh aniqlovchi vazifasida:

The note of **rising** irritation was plainly audible in Martin's voice (*E. Caldwell*)

He knelt in silence, and in silence Caruzo laid his on *the bent head* (*E. Caldwell*).

2) sifatdosh qoʻshma ot kesimning ot qismi vazifasida:

The old man was tall and shadowy and stooping. (*J. Steinbeck*) Your people are excited and the word of your coming has travelled all over the two valleys

(*J. Steinbeck*).

3) sifatdosh hol vazifasida:

Liza rose to her feet. Lavretsky followed her out. Going downstairs Liza suddenly stopped (*H. James*).

If insulted she would merely bow meekly and be grateful for *them*. (*H. James*).

Sifatdoshning fe`llik xususiyatlari quyidagi hollarda ko`rinadi:

1) I sifatdosh perfekt va nisbat kategoriyalariga ega.

	Aniq daraja	Majhul daraja
Perfekt bo`lmagan formasi	reading	being read
Perfekt formasi	having read	having been read

2) o`timli fe`ldan hosil bo`lgan sifatdosh vositasiz to`ldiruvchi olishi mumkin:

Then taking a pocket knife, he deftly ripped up the torn sleeve supporting the child's head against his breast, while Gemma held the injured hand (*E. Caldwell*).

«I am happy it is you», sister Swarts said, patting Celas hand (*J. Steinbeck*).

3) sifatdosh ravish bilan aniqlanib kela oladi.

His eyes dilated. She was quite still, **hardly breathig** till he spoke again (*E. Caldwell*).

There is no need to leave. - he said. "Oh, but I *know* there is", the old man said nodding wisely (*J. Steinbeck*).

Sifatdoshda perfekt kategoriyasi. Perfekt kategoriyasi faqat I sifatdoshlarga bo`lib, u sifatdoshning perfekt va perfekt bo`lmagan formalarining oppozitsiyasidan tashkil topgan. Masalan: reading - having read, being read - having been read.

Perfekt bo'lmagan - sifatdosh gapdagi asosiy fe'l bajargan ish – harakat bilan bir vaqtda bo'lgan harakatni ifodalaydi, perfekt sifatdosh esa asosiy fe'l ifodalagan ish - harakatdan avval sodir bo'lgan ish - harakatni ko'rsatadi. Masalan: Reading this book, I came cross, many unknown words.

Having read the book, I gave it to my friend.

Sifatdosh II birgina formata ega xolos, shuning uchun unda hech qanday grammatik kategoriya mavjud emas.

Sifatdoshda nisbat kategoriyasi. O'timli fe'llardan yasalgan I sifatdosh nisbat kategoriyasiga ega:

Aniq daraja:

reading

having read

Majhul daraja:

being read

having been read

Ingliz tilida sifatdoshning majhul nisbatdagi analitik formalar bo'lib, ular *to be* yordamchi feliga II sifatdoshni qo'shish bilan yasaladi.

II sifatdoshda nisbat kategoriyasi mavjud emas, chunki unda bir – biriga qarama – qarshi qo'yilishi mumkin bo'lgan aniq va majhul nisbat formalari yo'q.

Sifatdoshning gapdagi funksiyasi. 1) I sifatdosh aniqlovchi funksiyasida:

“I hate you!” She cried, turning on him with eyes like glowing coals (*E. Caldwell*) - Sizlarni ko'rishga ko'zim yo'q! — deb qichqirda. Ko'zlari esa yonib turgan cho'g'day yaraqladi (*E. Caldwell*).

“You asking me why a drowning man struggles for his life. (*P. J. Steinbeck*).- Hali siz g'arq bo'layotgan odam nega cho'pga yopishadi deb ham so'rasiz (*J. Steinbeck*).

Aniqlovchi vazifasinn bajarayotgan ingliz I sifatdoshi o'zbek tiliga sifatdosh formalarn orqali beriladi.

Aniqlovchi funksiyasidagi I sifatdosh o'zi aniqlab kelgan otdan avval

yoki keyin kelishi mumkin.

Aniqlanmishdan avval kelgan I sifatdoshning aktiv formasi odatda yolg'iz o'zi ishlatiladi, ya'ni o'ziga tobe so'zlar bilan kela olmaydi. Masalan:

In the deepening dusk Harry looked dawn High Street and felt at home (J. Steinbeck). Lekin quyuqlashib borayotgan g'ira - shirada katta ko'chaga qarab turib, uyda ekanligiga xursand bo'lib ketdi (J. Steinbeck).

O'ziga tobe so'zlarni boshqarib kelgan sifatdoshli birikma odatda aniqlanmishdan keyin qo'llanadi:

Once in a while letters arrived from Alisher and Timur fighting on the front line (H. Davron). Frontning oldiigi liniyalarida jang qilayotgan Alisher va Temurdan tez - tez qisqa yozilgan maktublar kelib turardi. (H. Davron)

The hunter sipped his coffee and ate his burnt almonds with the grave and concentrated enjoyment of a cat drinking cream. (E. Caldwell). So'na qyyomoq yalayotgan mushuk singari kofesini kerilib ichishga, qandil bodomini mazza qilib eyoishga kirishdi (E. Caldwell).

Shu narsani aytib o'tish kerakki, o'zbek tilidagi sifatdoshli birikma hech qachon aniqlab kelayotgan otdan keyin kelmaydi.

Ingliz tilida passiv nisbatdagi I sifatdosh har doim post - pozitsiyada qo'llanadi va majhul nisbatdagi o'zbek sifatdoshiga to'g'ri keladi. Masalan:

The hostel being built in our street is for University students. Ko'chamizda qurilayotgan yotoqxonada universitet studentlariga mo'ljallangan.

The question now being discussed at the meeting is very important. Hozir majlisda muhokama qilinayotgan masala juda muhim.

I sifatdoshning perfekt formalari aniqlovchi vazifasida ishlatilmaydi. Ba'zan aniqlovchi funksiyasidagi I sifatdosh (yoki u hosil qilgan oborot) gapda ancha mustaqillikka ega bo'lib, I sifatdosh bilan aniqlanmish o'rtasidagi bog'liqlik susayadi.

Bunday holatda I sifatdosh ajratilgan aniqlovchi vazifasida kelgan bo'ladi. Ajratib ko'rsatilgan aniqlovchi odatda vergul bilan ajratiladi. Masalan: Rivera, on his knees, **scrubbling**, looked up, with suspended brush,

his bare arm flecked with soapy, dirty water (*J. London*). Tiz cho' kib **pol yuvayotgan** Rivera boshini ko'tardi, uning shimarilgan qo'llaridan kir suv tomchilari oqib turardi.

Three women, chatting at the gates of a house near the small market, recognized her (*A. Ismailov*). Guzarga yaqinroq bir eshik oldida gurunglashib turgan xotinlar uni uzoqdan tanidilar (*A. Ismailov*).

2) I sifatdosh qo'shma ot kesimning ot qismi vazifasida.

The joy of the prisoners was almost **overwhelming**. Their speed was slow, however, because, pitfalls were somewhat common and has to be guarded against (*M. Twain*). Kichkina asirlar shodliklaridan o'zlarini bilmas, lekin tez yura olmas edilar, chunki har qadamda chuqur erlar bo'lgani uchun ehtiyot bo'lib yurishga to'g'ri kelardi (*M. Twain*).

3) I sifatdosh hol vazifasida:

a) payt holi. Nayt holi vazifasini bajargan sifatdosh (sifatdosh oborot) asosiy fe'l bilan bir paytda bajarilgan yoki undan avval bajarilgan ish - harakatni ifodalashi mumkin. Masalan:

Placing the child on the chair, the hunter knelt down beside him . . . (*E. Caldwell*). **And having spoken**, he took his stand back to the fireplace (*J. Galsworthy*).

Payt holi funksiyasini bajarib kelgan sifatdosh yoki sifatdoshli oborot o'zbek tilida sifatdosh yoki ravishdoshli oborotlarga to'g'ri keladi:

Sitting still, he might have been taken for a very pretty girl masquerading in male attire (*E. Caldwell*). Jim o'tirgan kezlarida, yaxshigina qizaloq ekan deb o'ylash mumkin (*E. Caldwell*).

Coming home from work, he would tell them about the railway or a locomotive, imitating its whistle (*A. Ismailov*). Ishdan kelgandan keyin, qizlariga poezd to'g'risida hikoya aytib berar, parovozning «pipiyp» deb yurishini qilib ko'rsatar edi (*A. Ismailov*).

Ayrim vaqtlarda payt holi vazifasini bajargan sifatdosh oboroti when va while bog'lovchilari bilan birga keladi:

The **Governer, when sending into the legate his report of the arrest**, had begged as a special favour permission of this case (*E. Caldwell*). Martin was in very high spirits while driving through the fertile country (*E. Caldwell*).

b) sabab holi I sifatdoshning hamma formalari sabab holi vazifasini bajarib kela oladi. Masalan:

... **but remembering** that he had not seen her for three weeks, he held out his hand and said rightly: Good evening; Zita, how are you? (*E. Caldwell*) ... and **being occupied in preparations for an evening visit**, it passed out of her thoughts entirely (*B. Slower*).

v) o'xshash holi. O'xshatish holi vazifasida ishlatilgan sifatdosh yoki sifatdoshli oborot o'zbek tilida sifatdoshning (yotgan + day) dek formasiga to'g'ri keladi.

Martin stood and answered slowly, as **though repeating a catechism ...** (*E. L. E. Caldwell*). Artur o'rnidan turdi—da, **katexezisning so'zlarini takrorlayotgandek** tantana bilan javob qildi... (*E. Caldwell*)

“I am no longer a child Harry, Mary was right”. **As though thinking** aloud she murmured ... (*J. Steinbeck*). “Men endi kichkina bola emasman, Lenni, Mary to'g'ri aytadi”. Xuddi ovozini chiqarib aytayotganday pichirlab davom ettirdi u... (*J. Steinbeck*).

g) ravish holi. Ingliz tilida sifatdosh va sifatdoshli oborot ravish holi vazifasini bajarganda, u o'zbek tiliga ravishdosh orqali tarjima qilinadi:

Better die **standing** than live **bending** (*Proverb*). Tiz cho'kib yashagandan tik turib o'lgan yaxshi (*Maqol*).

Then he went on his stomach and began to eat the earthli toughing mildly while he did it (*J. Steinbeck*). Keyin muqqasidan yiqildi—da qattiq xoxolab, er tishlay boshladi. (*J. Steinbeck*).

d) ketma - ket harakatni ifodalovchi hol. (adverbial modifier of circumstances). By vazifadagi sifatdosh yoki sifatdoshli oborot asosiy fe'l ko'rsatgan ish - harakatidan ancha mustaqil bo'lgan ish - harakatni ifodalaydi. U

o'zbek tiliga ravishdoshning **-ib** formasi yoki shaxsli fe'l formalari orqali tarjima qilinadi:

“I thought so”, - she said **looking Harry up and down.** (*J. Steinbeck*). -
O'zim ham shunday deb o'ylovdim - dedi u **Lenniga boshdan oyoq razm solib**
(*J. Steinbeck*).

“What feeling, - she observed to Gedeonovsky in an undertone.
“A splendid” - Gedeonovsky repeated, rolling up his eyes. (*H. James*).

- Jonon ayol, - dedi Marya Dmitrievna Gedeonovskiy va osmonga tikildi
(*H. James*).

4) I sifatdosh qo'shma to'ldiruvchi (complex object) ning qismi vazifasida:
Mad Sam looked up and saw Harry approaching him (*P. J. Steinbeck*).
Telba Sem boshini ko'tarib, unga tomon kelayotgan Lenniga ko'zi tushdi (*P. Abraxams*).

And with Secret fear she saw Panshin riding into the courtyard (*H. James*).
U noma'lum qo'rquv ichida Panshinning xovliga otda kirib kelayotganini ko'rdi.

5) I sifatdosh qo'shma fe'l kesimning qismi vazifasida:
Kudratullah could be heard swearing (*A. Ismailov*). Kudratullaning
so'kinayotganini eshitishdi (*A Ismailov*).

At about ten o'clock the next morning Lavretsky was seen mounting the
porch steps of Kalitin's house (*H. James*). Ertasi kun soat o'nlarda Lavretskiyning
Kalitinlar uyiga ko'tarilayotganini ko'rishdi (*H. James*).

6) sifatdoshli oborot kirish so'z vazifasida:
Generally speaking, it would be useful to visit Britain again but I don't
think that I shall be able to do so this trip to the United States. (*Daily Worker*).

- Umuman, Angliyada yana bir marta bo'lish foydali bo'lur edi lekin
Amerika Qo'shma Shtatlariga qilinayotgan bu safarda Angliyaga tushib o'tishning
imkoni bo'lmasa kerak.

. . . and judging by Glafira's letter, Fedya was now getting on for thirteen,
and it was now time to give serious attention to his education. (*H. James*).

II sifatdoshning gapdagi sintaktik funksiyasi. II sifatdosh ham gapda bir qancha vazifalarni bajaradi.

1) II sifatdosh aniqlovchi vazifasida:

a) prepozitiv aniqlovchi. Ingliz tilidagi bunday aniqlovchi o'zbek tilida sifatdoshning majhul darajasidagi gap formasiga to'g'ri keladi.

He had received from Gemma by post a bundle of printed circulars (*E. Caldwell*). Jemma unga bosmaxonada nashr qilingan bir bog'lam e'lon yubordi (*E. Caldwell*).

He took a neatly **folded** envelope from his breast pocket (*H. Davron*). Yigit ko'krigidan ikki buklangan xatni oldi (*H. Davron*).

b) postpozitiv aniqlovchi. Postpozitiv aniqlovchi vazifasini bajarib kelgan II sifatdosh aniqlanishdan keyin joy oladi va kun holatlarda oborot sostavida ishlatiladi.

The Gadify was sitting beside a table **covered with flowers and ferns**, staring at the flowers with an open letter on the knee (*E. Caldwell*). So'na gullar qo'yilgan yozuv stoli yonida parishonlik bilan erga qarab o'tirar, tizzasida bir ochiq xat yotardi (*E. Caldwell*).

The - inhibitions **caused by oppression** have left him (*J. Steinbeck*). Ezilish tug'dirgan siqqlik, qo'rquvdan u, nihoyat, qutulibdi. (*J. Steinbeck*).


Yuqoridagi misollardan aniq ko'rinadiki, o'zbek tili sifatdoshlari oborot sostavida aniqlanishdan oldin keladi.

v) ajratilgan aniqlovchi:

I sifatdosh kabi II sifatdosh ham ajratilgan aniqlovchi vazifasini bajarib keladi. Ajratilgan aniqlovchi vazifasidagi sifatdoshli oborot prepozitiv yoki postpozitiv holatda turishi mumkin: 1) **Tortured by longing and sadness**, he blew out the lamps and followed his mother out into the empty darkness (*J. Steinbeck*).

2) It seemed hard to see this dear study, the Padre's own private anctum, **invaded by a stranger** (*E. Caldwell*).

Kognitiv tilshunoslikning bazaviy tamoyillari



2) **II** sifatdosh qo'shma ot kesimning ot qismi vazifasida:

They fried fish with the bacon and were **astonished** (*M.Twain*). Ular baliqlarni go'shtiga qo'shib qo'vurib olar ekanlar, taajjubda qoldilar. (*M.Tven*)

Tom was paralysed, he could not move (*M.Twain*). Tom qo'rqqanidan qotib qoldi. U qo'lini xam, oyog'ini ham qimirlata olmay qolgan edi. (*M.Tven*)

3) **II** sifatdosh payt, shart, to'siqsiz va o'xshatish holi vazifasida kela oladi. Hol vazifasida qo'llanganda, **II** sifatdosh **when, if, once, even though, although, as, of, as though** kabi bog'lovchilar bilan birga keladi.

a) payt xoli:

He listened in silence: and **when asked**, according to the usual form, whether he had anything to say, merely waved the question aside with an important movement of his hand (*E.Caldwell*). U indamasdan eshitdi: rasmiy odatga ko'ra, aytadigan gapi bormi yo'qligini so'rashganda, g'ashi kelib, qo'lini siltab qo'ya qoldi (*E. Caldwell*).

Several witnesses deposed concerning Potter's quilty behaviour **when brought to the scense of the murder** (*M.Twain*) Guvoxlardan biri necha kishi, Potterning o'ldirilgan yerga olib borilganda, uning qiliq va xarakatlaridan aybli ekani sezilib turgani haqida so'zlashdi. (*M.Tven*)

b) shart holi:

And the pound of butter would last a week, **if kept** in cold water and she watched Mabel (*J.Steinbeck*). Agar sovuq suvga solib qo'yilsa va u Meybldan ko'z-quloq bo'lib tursa, bir funt yog' bir xaftaga etadi (*J.Steinbeck*).

Once started, the revolution would take care of it self (*J.London*). Revolyutsiya boshlanib ketsa, u o'z-o'zini tamin qila oladi (*London*).

V) to'siqsiz xol:

But a viper, **even crushed** and dying, strives to sting to the last (*H.Davron*). Ammo ilon yanchib tashlanganda ham, zaxar sochishga intiladi (*H.Davron*).

She set down, folded hands and followed his movevents with his eyes that were still beautiful, **lightly touched up** (*H.James*).

Qovog'ida hayol chiziqlar paydo bo'lgan bo'lsa-da, hamon juda go'zal ko'zlarini tikib, uni kuzata boshladi (*H. James*).

G) o'xshatish holi:

There was a single street lamp at the corner, and he saw by its light that she was hanging her head down, **as though embarrassed or ashamed** (*E. Caldwell*).

Ko'cha oxirida bittagina fonar bor edi. Martini uzoqdan turgan o'sha yorug'da Zitaning tortinayotgandek yoki biron narsadan uyalayotgandek, boshini solintirib kelayotganini ko'rdi. (*E. Caldwell*)

... Haley broke out afresh with becoming difference, **but as it acturately driven by the force of truth to say a few words more** (*B. Stower*).

... Geli, go'yo xaqiqiy holni oxirigacha izxor etish tilagi bilan to'lib-toshgandek shu mavzuda yana gap boshladi (*B. Stou*)

2.3. Sifatdoshli predikativ konstruktsiyalarning pragmalingvistik jihatlari

Sifatdoshli obektiv konstruktsiyalar. Hozirgi zamon ingliz tilida quyidagi sifatdoshli predikativ konstruktsiyalar mavjud:

1. Sifatdoshli obektiv konstruktsiya.
2. Sifatdoshli subektiv konstruktsiya.
3. Sifatdoshli nominativ absolyut konstruktsiya.
4. Sifatdoshli predlogli absolyut nominativ konstruktsiya.

Sifatdoshli obektiv konstruktsiya (The Objective Participial Construction).

Bu konstruktsiyadagi sifatdosh umumiy kelishikdagi ot yoki obektiv kelishigidagi olmoshga nisbatan predikativ munosabatida bo'ladi. Masalan:

But this eyes stole to where Sarie stud and there was a jump of joy in his heart when he saw **her watching him** (*J. Steinbeck*) I "wish you could show me what you see, carino", he said as he looked up from his book, and saw **Martin sterched** (*E. Caldwell*)

Sifatdoshli obektiv konstruktsiya gapda qo'shma to'ldiruvchi (complex object) vazifasini bajarib keladi.

Sifatdoshli obektiv konstruktsiya quyidagi hollarda qo'llaniladi: 1) **to see, to hear, to notice, to feel, to watch, to find** kabi sezgi manosini bildiruvchi fe'llardan keyin:

The dangerous new-comer in the blue jacket, glancing swiftly round saw only **two farmers discussing** their crops over a flask of wine (*E. Caldwell*). One afternoon in the following week Ricardo found him lying (*Ibid*). The children fastened their eyes upon their bit of candle and watched **it melt** slowly and pitiously away. (M.Twain).He found **it locked** and was obliged to vault the fence (H.James)

2) **to keep, to set, to start, to have** kabi biror ishni bajarishga majbur qilishlik manosini bildiradigan fe'llardan keyin (bunda asosan konstruktsiya sostavida I sifatdosh ishlatiladi:

Don't keep **the line waiting** (*Th. Dreiser*). Fedya studied these pictures: They were all familiar to him down to the smallest detail: some of them, always the same ones, set **him thinking** and loosed his imagination (*H. James*). It's rather hard to have **your husband running** about like that, isn't it? Said Hurstwood: addressing Carrie (*Th.Dreiser*)

3) **to want, to wish, to desire** kabi istak-hoxish manosini bildiradigan fe'llardan keyin (bunda konstruktsiya sostavida **II** sifatdosh ishlatiladi):
 "IT is all very well, gentlemen, to want **the people helped** at once" he said, looking around the red-hot radicals with his calm and pitying air (*E. Caldwell*). We don't want **anything changed** here" (*J. Steinbeck*).

4) **to have** va **to get** fe'llaridan keyin (bunda ham konstruktsiya sostavida doimo **II** sifatdosh qo'llaniladi):

So I had to have **a bolt made** at the smithy (*H.Davron*)

Lavertsky walked through out all the rooms, ...and had the doors opened everywhere (H. James)

Yuqoridagi fe'llardan keyin kelgan sifatdoshli obektiv konstruktsiyada ish - harakati ega ifodalagan shaxs taklifiga binoan boshqa shaxs tomonidan bajarilgan bo'ladi.

Sifatdoshli sub`yektiv konstruktsiya. (The Subjective Participial Construction). Bu konstruktsiya ham ikki elementdan tashkil topib, birinchi elementi umumiy kelishikdagi ot yoki nominativ kelishikdagi kishilik olmoshi bilan, ikkinchi elementi esa sifatdosh bilan ifodalanadi. Bu konstruktsiyaning o`ziga hos xususiyati shundan iboratki, uning ikkinchi elementi boshqa-boshqa sintaktik vazifalarni bajarib keladi. Ot elementi gapda ega vazifasini, fel elementi esa qo`shma fel kesimning qismi bo`lib keladi. Masalan:

At the windows **dark figures** could be seen **hanging blackout clothes** (*Turgenev*). **Lavtersky was left standing alone on the steps**, and he gazed down the road until the tarantass was no longer in sight (*H. James*). Once more **stewards bailiffs and all manner of common folk** could be seen **coming to the back entrance to speak to the old skinflint** (*Turgenev*). He would often be found sitting in the corner (*Turgenev*).

Sifat olmoshli nominativ absolyut konstruktsiya (The nominative Absolute Participial Construction). Xozirgi zamon ingliz tilida sifatdoshli nominativ absolyut konstruktsiya mavjud bo`lib, uning ot elementi umumiy kelishikdagi ot yoki nominativ kelishikdagi kishilik olmoshi bilan ifodalanadi. Ba`zan ot element **that, it** olmoshlari yoki **there** so`zi bilan ham ifodalanib kelishi mumkin. Konstruktsiyaning fel elementi sifatdosh bilan ifodalanadi. Masalan:

The preacher saw Mako and hurried forward, **his cheeks puffed out in anger** (*J. Steinbeck*). ...and she sat listening silently, **her chin resting on one hand** and her eyes on the ground (*E. Caldwell*)

Sifatdoshli nominativ absolyut konstruktsiya gapda *payt, sabab va ketma-ket ish-harakatni ifodalovchi hol vazifasini bajarib kela oladi.*

1)payt holi:

The congregation being fully assembled now, the bell rang once more to warn laggards (*M. Twain*)

Cherkov xalq bilan ilq to`lgandan keyin, kechikkanlarni ogohlantirish uchun yana qo`ng`iroq chaldilar. (*M. Twain*).

The work finished we went home.


Ish tamom bo'lgach, biz uyga ketdik.

2) sabab holi:

She would gladly have stopped at the door to listen, as she came out: **but her mistress just then calling**, she was obliged to hasten away (B.Stower). U eshik yonida turib, yana quloq solardi-yu, lekin shu chog' bekasi chaqirib qolganligidan uning yoniga ketdi (V.Ston).

7-jadval

Kognitiv tilshunoslikning yo'nalishlari



Not a soul was in sight, all the hands being employed in the fields (M. Twain). Hamma dalada, ishda bo'lganligidan, fermada heya kim yo'q edi. (M. Tven).

Ne dismissed her at length, and after long hesitation Varvara Pavlovna not having returned - he decided to go to the Kalitins... (H. James). U nihoyat, uni chaqirib yubordida, Varvara Pavlovna hanuz qaytib kelmagani sababli, Kalitinlarnikiga borishga ahd qildi (I.Tugenev). 3) Ketma - ket harakatni ifodalovchi hol.

The tarantass drove into the yard, its wheels rustling over the nettles. .
(*H. James*). Tarantas g'ildiraklari bilan qichitqini ezib - yanchib, hovliga kirdi (*H. James*).

“None of your business” Mary said calmly and walked down **the High Street, hips swaying freely, proud head carried high** (*P. J. Steinbeck*). - Ishing bo'lmasin, - Mary vazmin javob berdi - da, sonlarini lorsillatib, mag'rur boshini tik tutganicha katta ko'chadan yurib ketdi (*P. Avraxams*).

Caruzo came slowly down, the steps, **the people crowding about him to kiss his hands** (*E. Caldwell*). Caruzo sekin pastga tusha boshladi, kishilar esa uning qo'lini o'pish uchun atrofini o'rab oldilar. (*E. Caldwell*).

“I'm not a slave!” she cried, fears brimming her eyes (*J. Steinbeck*). Men cho'ri emasman! - deb qichqirdi Meybl ko'zlari jiqqa yoshga to'lib (*P. Avraxams*.)

Sifatdoshli predlogli absolyut konstruktsiya (The Prepositional Absolute Participial Construction). Bu konstruktsiyaning ot elementi umumiy kelishikdagi ot yoki ob'ektiv kelishikdagi olmosh bilan, fe'l elementa esa I sifatdosh yoki II sifatdosh bilan ifodalanib keladi.

Sifatdoshli predlogli absolyut konstruktsiya gapda ketma - ket harakatni bildiruvchi hol vazifasini o'taydi. Masalan:

His movement was a sort of left footed running jump **with his right leg trailing slightly behind** (*J. Steinbeck*). U o'ng oyog'ini sudrab, chap oyog'ida qiltang – qiltang qilib sakrab yurardi (*J. Steinbeck*).

“It - it is not Domenichino I want to save”, he stammered at **last, with his face half - buried in the cat's fur** (*E. Caldwell*). So'na yuzini mushuk yunglari ichiga qaratib, yashirib turib, g'udurladi:

- Men - men Dominikinoki qutqaray deya yotganmm yo'k. (*E. Caldwell*).

Mary sat **with her hands cupping her chin**, staring at a corner of the little kitchen (*J. Steinbeck*). Mary kaftiga dahanini tirab, kichkina oshxonaning burchagiga tikilib o'tirardi. (*J. Steinbeck*).

“Why am I sitting here **with my head buried in a bush** like an ostrich?

(*H. James*).- Nega endi boshini buta orasiga suqib turgan tuyaqush singari bu yerda berkinib o'tiribman, axir? (*H. James*)

II bob bo'yicha xulosalar.

Fe'ning shaxssiz formalari shaxsli formalar singari perfekt za daraja (nisbat) kategoriyasiga ega.

Ingliz tilida shaxssiz formalar uchta: infinitiv, sifatdosh va gerundiy.

O'zbek tilida ham fe'ning uchta shaxssiz formasi bor: harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh. Ikkala tildagi shaxssiz formalarning soni bir – biriga teng bo'lsa ham, ularning ma'nolarida va sintaktik funksiyalarida katta farq bor. Masalan, ingliz gerundiysinng ma'no va funksiyasi o'zbek tilidagi infinitiv, sifatdosh va ravishdosh orqali ifodalanadi. O'zbek ravishdoshining ma'no va funksiyalari esa ingliz sifatdoshi va gerundiysi orqali beriladi. Shu narsani aytib o'tish kerakki, o'zbek tilida gerundiy, ingliz tilida ravishdosh yo'q.

Shaxssiz formalarning o'zlariga xos xususiyatlari quyidagi hollarda ko'rinadi:

1. Shaxssiz formalar fe'llik belgidan tashqari yana biror belgiga - otlik, sifatlik yoki ravishlik belgisiga ega. Ularning fe'llik belgilari o'zlari ifodalagan morfologik kategoriyalar va o'zlari bilan vositasiz to'ldiruvchi olishlari va ravish bilan izohlanishlarida ko'rinadi, otlik belgilari esa sintaktik funksiyalarida namoyon bo'ladi. Masalan, sifatdosh fe'llik belgilaridan tashqari sifatlik va ravishlik xususiyatlariga ega, infinitiv va gerundiya esa fe'llik xususiyatlari bilan birga otlik xususiyatlarini ham ko'rish mumkin.

2. Shaxssiz formalar ot va olmoshlar bilan predikativ konstruktsiyalar hosil qilishi mumkin. Bunday konstruktsiyalarda doimo ikkita element mavjud bo'ladi. Konstruktsiyadagi birinchi element ot yoki olmoshlar bilan ifodalanib, *ot qism* deb ataladi, ikkinchi qismi esa shaxssiz formalarning biri bilan ifodalanib, konstruktsiyaning *fe'l qismi* yoki *elementa* deb ataladi. Konstruktsiyadagi shaxssiz formalarning biri bilan ifodalangan element ot elementiga nisbatan predikativ munosabatida bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, ot qism bilan fe'l qism o'rtasidagi munosabat gapdagi ega bilan kesim munosabatiga o'xshashdir.

III Bob. O'zbek tilidagi sifatdoshlarning strukturaviy – funksional xususiyatlari.

3.1. O'zbek tilidagi sifatdoshlar kategorial semantikasining pragmatik aspekti.

Sifatdosh - o'zbek tili morfologiyasi eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Bu ish orqali o'zbek tilidagi sifatdoshga bog'liq bo'lgan ayrim masalalarga, chunonchi: 1) sifatdosh alohida so'z turkumi so'z turkumi emasmi? 2) Sifatdosh aniqlovchilar gapmi? gap emasmi? 3) Ayrim sifatdosh formalarining kontekst oqimida ma'no xususiyatlari; 4) aniq va majhullik e'tibori bilan sifatdoshning qo'llanishida grammatik, stilistik normalar va boshqa masalalarga aniqlik kiritish uchun intildik.

Sifatdoshga doir hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalar asosan bu grammatik kategoriyaning aniqlovchilik funksiyasi bilan bog'liq. Ana shuning uchun ham, bu ishda sifatdoshning aniqlovchilik funksiyasiga ko'proq e'tibor berdik va bu grammatik kategoriyaning morfologik, leksik mohiyatini ochishda asosan uning aniqlovchilik funksiyasini ko'zda tutdik.

Biror grammatik kategoriyani so'z turkumi sifatida ajratish uchun uchta belgining bo'lishi shart: a) morfologik, b) leksik, c) sintaktik belgi.¹ O'zbek tilida sifatdosh yuzasidan olib borilgan kuzatishlar bu belgilarning sifatdoshda mavjud ekanligini, shunga ko'ra, sifatdoshni alohida so'z turkumi sifatida ajratish mumkin va zarurligini ko'rsatdi.

Masalaning mohiyatini to'g'ri payqab olish uchun, hozirgacha bo'lgan sxemadan birqadar uzoqlashmog'imiz kerak. Maktab grammatika darsliklaridagi tasnifga ko'ra, sifatdosh fe'l sistemasiga kiritib qaraladi (alohida so'z turkumi qilib ajratilmaydi). Bu hol har ikki grammatik kategoriya (fe'l va sifatdosh) haqida konkret tasavvur hosil qilishga imkon bermaydi. Natijada, har ikki grammatik kategoriyaning tub mohiyati, ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlari ochilmay qoladi. Boshqacha aytganda, sifatdosh tushunchasi fe'l tushunchasi bilan

¹ II. Meshaninov «Члены предложения и части речи» 1945, 189-195 б.

birikib ketadi. Shu bilan, fe`lning tabiati ham xiralashadi. Albatta, bunday hollar o'zbek tili grammatikasining hali ilmiy asosda yetarli ishlanmagani orqasida yuz bergandir.

Akademik I. Ch Meshchaniyaov fe`l doirasini qat`iy chegaralaydi (sifatdoshni fe`l doirasiga kiritib qaramaydi).¹

O'zbek tilidagi sifatdosh, dastlab, o'zning ikki, hatto uchyozlamalik ma`no xususiyati bilan xarakterlidir. U, bir tomondan, fe`lga, ikkinchi tomondan, sifatga, shu bilan, otga ham yaqin turadi. Mana shu xususiyat sifatdoshni fe`l yoki sifatga kiritib qarash uchun emas, balki, aksincha, uni alohida so'z turkumi sifatida ajratish uchun xizmat qilishi kerak. Sifatdoshga xuddi mana shu nuqtai nazardan yondashamiz. Masalan: "o'qigan Karim...", "Karim o'qigan", "o'qigan o'zar".

Bu misollardagi "o'qigan" so'zi uch xil funksiyada, shunga mos uch xil ma`no va uch xil formada kelayapti. "*O'qigan*" so'zi faqat birinchi misolda - sifatdosh; ikkinchi misolda - fe`llashgan, uchinchi misolda - otlashgandir. Ana shuning uchun ham, fe`l va ot o'rinda kelgan sifatdosh haqida tafsiliy gapirish, ayni zamonda fe`l va ot doirasiga ham o'tib ketish bo'lar edi. Shu bilan bu hol sifatdosh haqidagi tushunchani fe`l hamda ot tushunchalari bilan qorishtirib yuborishga olib kelar edi.

Umuman, o'zbek tilidagi sifatdoshning alohida so'z turkumi sifatida ajratish uchun yetarli asosdar mavjuddir:

a) sifatdoshning o'ziga xos morfologik belgilari bor; b) o'ziga xos leksik ma`nosi bor; v) sifatdoshning asosiy grammatik funksiyasi – aniqlovchilikdir.

O'zbek tilidagi sifatdoshlarning o'ziga xos morfologik belgilari mavjuddir. O'zbek tilida sifatdoshlarning yasalishi quyidagicha:

1) - gan (- kan, - qan). Bu formani bo'lishli yoki bo'lishsiz fe`l o'zak - negiziga qo'shish bilan sifatdosh yasaladi: *yozgan, ekan, chiqqan, yozmagan, ekmagan, chiqmagan*.

¹ I.I. Meshaninov «Глагол» М-Л 1948, 5-9 va 19-197 b.

2) - *yotgan* (yot + gan). Hozirgi zamon ravishdoshiga (bu termin shartli) va bo'lishsiz fe'l negiziga qo'shish bilan sifatdosh yasaladi: *yozayotgon, kelayotgan, yozmayotgan, kelmayotgan*.

Fe'l o'zak - negizlari unli tovush bilan bitgan bo'lsa, - yotgan qo'shimchasi ravishdoshga emas, to'g'ridan - to'g'ri buyruq fe'l o'zak negiziga qo'shiladi: *o'qiyotgan* (<*o'qi-y-yotgan*); *ishalayotgan* (<*ishla - y - yotgan*). Bunday xollarda sifatdosh qo'shimchasi - yo (yo) bilan boshlanganidan, nazariy jihatdan ishlatilishi kerak bo'lgan ravishdosh affiksi - y qisqarib qoladi.

3) - *digan* (<*tur-gan*¹). Hozirgi zamon ravishdoshining bo'lishli yoki bo'lishsiz shakliga qo'shiladi: *yozadagan, o'qiydigan, yozmaydigan, o'qimaydigan*².

4) - *uchi - vchi* (fe'l o'zak - negiziga qo'shiladi): *keluchi, ishlovchi*.

5) - *ar - r* (bo'lishsizi: - s) fe'l o'zak - negiziga qo'shiladi: *uchar, uchmas, o'qir, o'qimas*.

6) - *jaq* ravishdosh formasiga qo'shilish bilan sifatdosh yasaladi: *kelajek, bo'lajak*.

7) - *gusi* (-g'usi); fe'l o'zagiga qo'shiladi: *kelgusi, bulg'usi*.

8) - *mish*; fe'l o'zagiga qo'shiladi: *bo'lmshi, kelmash*.

Sifatdosh tarixan fe'llardan ham aldin kelib chiqqan³.

Bu holni o'zbek tili faktlarida ham ko'rish mumkin. Masalan, sifatdosh formasidagi "o'qigan" so'zini kontekstdan tashqarida olsak, uch so'z turkumiga (sifatdosh, fe'l, otga) xos ma'nolarni umumiy tarzda ifodalaydi. U ma'nolar kontekstdagina farqlanadi: *o'qigan* student.

Student o'qigan. O'qigan o'zar.

Shu bilan, kesim bo'lib kelgan sifatdosh, asosan ot qo'shimchasini oladi: *yozganman, yozgansan. yozgan* (dir). Qiyos qiling *studentman, studentsan. student* (dir).

¹ Shoir Muqimiyning "Tanobchilar" she'rida "Kuyduraturg'on, o'ldiraturg'on" shakllarda ham uchraydi.

² A.N. Kanonov "Грамматика узбекского языка" Toshkent 1948, 205 b.

³ И. Meshaninov «Члены предложения и части речи» 1945, 237 b.

Hozirgi paytda shaklan sifatdosh formasidagi so'zlarning goh sifat kabi: *chopag'on, qopag'on, bilag'on* (Toshkent, Andijon); goh ot kabi (*qo'ragon*) qo'llanilishi va shu kabi hollar sifatdoshlarning ibtidoiy so'z turkumlaridan biri ekanligidan darak berib turadi.

Lekin, ayrim so'zlar tobora gapda yetakchi funksiyada kelishi va shunga mos chegaralangan leksik ma'no hamda shakl kasb etishdan so'z turkumlari kelib chiqqanki,³ sifatdoshlar ham bu umumiy tarixiy jarayondan tashqarida qolmagan. Ularning fandagi asosiy vazifasi aniqlovchilik bo'lib qolgan va shunga mos chegaralangan leksik ma'noga ega bo'lgan hamda yuqorida keltirilgan 8 ta morfologik shakl asosan sifatdoshlarga xos belgilar bo'lib hisoblanadi.

Demak, fe'l o'zak - negizga mahsus qo'shimchalar qo'shish bilan sifatdosh yasaladi desak, bu xol tarixan sifatdosh fe'ldan kelib chiqqan, degan so'z emas. Fe'ldan sifatdosh yoki sifatdoshdan fe'l kelib chiqqan emas, balki bu ikki kategoriya qadimga "ot" ning keyinchalik tabaqalanishidan hosil bo'lgandir.

3.2. Sifatdoshlarning leksik ma'nosi.

Sifatdoshning asosan otga bog'lanib, otni aniqlab kelishi, uning (sifatdoshning) funksiya va ma'noda sifatga yaqinlashib kelishini shartlagan.

O'zbek tilidagi sifatdoshlar o'zlarining leksik ma'nosiga ko'ra, predmetlarning harakat belgilarini ifodalab aniqlab keladi. Sifatlar ham belgi tasavvurini ifodalaydi. Lekin sifatlar ifodalagan belgilar statik - "passiv" belgilar bo'lib, sifatdoshlar ifodalagan belgilar aktiv o'zgaruvchan, dinamik belgilardir. Quyida keltirilgan misollardagi sifatdoshlar bilan sifatlarning leksik ma'nosini qiyos qilish: *yuradigan bola... gapirayotgan ishchi.., katta shahar, keng daryo.*

Predmentlarning harakat belgilari avtik belgilar unday belgilar real hayotimizda predmetlarning yashash obrazini his etishga imkon beradi, predmetlarning asosiy mohiyatini belgilaydi. Sifatdoshlarning mana shunday leksik ma'nosi ayrim hollarda aniqlanmishning ma'nosiga ham ta'sir qiladi, aniqlanmishni "aktivlashtiradi".

Masalan: Xayqirayotgan dengiz.

Shu bilan, ayrim hollarda sifatdoshlar leksik ma`nosi bilan butunlay sifatlashib ham ketadilar. Masalan: uchar qush... o`qar suv...; bu misollardagi „*uchar*“ „*oqar*“ sifatdoshlari aniqlanmish predmetlarning doimiy belgisini ifodalashga ko`chgan (demak, zamom tushunchasidan ajralgan) va bu doimiy harakat belgilari o`sha predmetlarga xos „o`zgarmas“ belgilarga, boshqacha aytganda, sifat belgilariga aylangan.

Sifatdoshning ayrim hollarda sifatga ko`chishi, boshqa tillarda, masalan, rus tilida ham mavjud.

Lekin sifatga ko`chgan sifatdoshlar bilan sifat o`rtasiga tenglik belgisini qo`yib bo`lmaydi. Sifatga ko`chgan sifatdosh o`z shaklini saqlab qolishi bilan, leksik ma`nosini ham qisman saqlab qoladi. Masalan: „o`lmas halq“, „buzilmas do`stlik“ misollaridagi sifatga aylangan sifatdoshlar (*o`lmas*, *buzilmas*) bilan, „*abadiy* halq“, „mustahkam do`stlik“, misollaridagi sifatlarning ma`no effekti bir emas. (Sifatga ko`chgan sifatdoshlarning leksik ma`nosi aqliy sifatlarga ko`ra obrazlidir).

Demak, sifatdoshning o`ziga xos leksik ma`nosi bordir.

Sifatdoshlarning fe`llarga yaqinlashib keladigan belgilari mana shular: 1) zamon va harakat tushunchasini ifodalashi: o`qigan bola...(o`tgan zamon), o`qiyotgan bola (hozirgi zamon davom) va sh.k. 2) bo`lishli, bo`lishsizlik shakllariga ega bo`lishi: *kelgan* kishi (bo`lishli), *kelmagan* kishi (bo`lishsiz): 3) imkoniyat shakli bilan: *yuraoladigan* bola; 4) fe`l darajalariga ega bo`lishi: *yozgan* student (aniq), *yozilgan* xat (majhul) va shu kabilar: 5) boshqaruv va bitishuv belgisi bilan: *kitobni* o`qigan bola (boshqaruv), *yaxshi o`qigan* bola (bitishuv). Hatto sifatdoshlarning fe`lga bu qadar yaqin bo`lishi ham, sifatdoshlarni fe`l kategoriyasidan ajratib, alohida so`z turkumi sifatida qarashga mone`lik qilmaydi.

Fe`l ma`no jihatdan predmetniig harakatini hukm yo`li bilan ifodalasa, sifatdosh aniqlash yo`li bilan ifodalaydi. Lekin, sifatdoshlar o`zlarining leksik ma`nosi bilan fe`llardan ham farq qiladi. Shu bilan, bu ikki kategoriya funksiya jihatdan ham bir emas.

Sifatdoshlarning fe`lga yaqin belgilari uni sifatdan ajratib tursa, sifatga yaqin belgilari fe`ldan ajratib turadi. Demak, sifatdoshni fe`lga kiritib qarajak uning sifatlik belgilarini, aksincha, sifatga kiritib qarajak, fe`llik belgilarini ko`zda tutmagan bo`lamiz. Bundan kelib chiqqadigan xulosa shuki, sifatdosh fe`l va sifatga yaqin bo`lishi bilan, ayni zamonda, har ikki so`z turkumidan farq ham qiladi. Sifatdosh tushunchasi fe`l tushunchasiga teng bo`lmaganidek, sifat tushunchasiga ham teng emas. Shu bilan u (sifatdosh) ot tushunchasiga ham teng emas.

3.3. Sifatdoshlarning sintaktik funksiyasi.

O`zbek tilida sifatdoshning asosiy sintaksistik funksiyasi – aniqlovchilikdir. Bu asosiy funksiyadan tashqarida sifatdoshning morfologik va leksik mohiyatini xam to`liq ochib bo`lmaydi.

Gapda fe`l yoki ot vazifasida kelish sifatdoshning ikkinchi darajali grammatik funksiyasidir. Chunki bunday hollarda sifatdosh o`z asosiy funksiyasidan chiqib, fe`l yoki ot funksiyasiga ko`chadi; shunga mos, funksiya, leksik ma`no va forma jihatdan asosan fe`llashadi yoki otlashadi. Bunday hollarda haqiqiy sifatdosh haqida emas, balki fe`llashgan yoki otlashgan sifatdoshlar ustidagina gap bo`lishi mumkin. Fe`llashgan yoki otlashgan sifatdosh qisman sifatdoshlik xususiyatini saqlab qolsa ham asosan fe`l yoki ot turkumiga o`tib, shularga xos umumiy grammatik qonunlarga bo`ysunadi.

Qisqasi sifatdosh deganda dastlab, bu kategoriyaning aniqlovchilik funksiyasini ko`zda tutishimiz va sifatdoshning asosiy mohiyatini ana shu funksiyadan izlab topishimiz, izohlashimiz kerak. A. Meshchaninovning fe`l haqida aytgan quyidagi so`zlari o`zbek tilidagi sifatdoshlarniig asosiy xususiyatlarini ularning etakchi sintaksistik funksiyasi orqali izohlashda biz uchun bir dastur bo`lib xizmat qiladi:

“А так как основной функцией глагола является выражение предикативности, то и совокупность признаков глагола может состоять только из предикативных показателей”.

Sifatdoshlar faqat otlarnigina emas, shu bilan, ot o'rnida kelgan boshqa so'zlarni ham aniqlab kelishi mumkin.

1. Kishilik olmoshlarini aniqlab keladi: *Bizga g'amxo'rlik qilgan* Sizdan minnatdormiz.

2. Otlashgan sifatlarni aniqlaydi: *Uning uchta o'g'lidan frontga ketgan* kattasi qahramon bo'lib qaytdi.

3. Otlashib kelgan miqdor so'zlarni aniqlaydi: Yarmini o'zi yeb, *qolgan* yarmini ukasiga berdi.

4. Otlashgan sonlarni aniqlaydi: O'quvchilardan *kelgan* beshtasi ro'yxatdan o'tdi.

5 Shu bilan, sifatdoshlar sifatlarni ham aniqlab kelishi mumkin: *qizargan* yuzli kishi... *kelishgan* qomatli yigit... Bunday hollarda sifatdoshlar ma'no jihatdan o'zlari ham sifatlashgan bo'ladilar.

O'zbek tilida, shuningdek boshqa turk tillarida sifatdosh aniqlovchilar gapmi? gap emasmi? masalasi atrofida ko'pdan beri turli - tuman fikrlar, qarashlar davom etib kelmoqda.

A. G'ulomov o'zbek tilida o'z "egasi" yoki to'ldiruvchisi bo'lgan sifatdosh aniqlovchilarni gap hisoblaydi, shu bilan, ayrim hollarda sodda sifatdoshlarni ham gap hisoblaydi: "Yuborilgan telgrammani oldingmi?". (Bu gapdagi "yuborilgan" sifatdosh aniqlovchi gap deb izohlangan).

I. Batmanov o'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilarga (ularning sodda yoki birikma bo'lishidan qat'iy nazar) gap emas, oborot deb qaraydi.

Shuni aytish kerakki, na aniqlovchi "gap" ni e'tirof qiluvchilar va na inkor etuvchilar o'z qarashlarini nazariy hamda amaliy jihatdan yetarli darajada asoslab bermaganliklari orqasida, nazariy va amaliy ahamiyati zo'r bo'lgan bir masala - sifatdosh aniqlovchilar gampi? gap emasmi masalasi problema holicha qolib keldi. Natijada, ayrim o'qituvchilar o'quvchiga sifatdosh aniqlovchini gap deb tanitsa, boshqalar gap emas; deb tanitadilar.

Bu o'rinda ana shu masalaga aniqlik kiritishga intilamiz. Umuman, problemaning qiyinligini sifatdosh aniqlovchilarning g'oyat murakkab tabiatidan izlash, izohlash kerak.

Sifatdosh aniqlovchilarning polisemantik xususiyati ularga logik jihatdan predikat - attribut, grammatik jihatdan kesim - aniqlovchi deb qarashga olib kelgan va shu yo'l bilan aniqlovchi "gap" haqidagi qarashlar keng tarqalib ketgan.

N. K. Dmitriev ergash gaplar ikki asosiy belgiga ega bo'lishi kerak, deb ko'rsatadi: 1) logik jihatdan nisbiy mustaqillik: 2) ega - kesim aloqasining mavjud bo'lishi.

O'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilar gapimi? gap emasmi? masalasiga ana shu belgilar asosida yondashaylik.

Masalani grammatik belgilardan boshlaymiz:

Aniqlovchi "gap"ni e'tirof qiluvchilar sifatdosh aniqlovchilarni real sub'yektga nisbatan kesim, real sub'yektni esa, sifatdosh aniqlovchiga nisbatan ega deb hisoblaydilar. Ya'ni: "*Men o'qigan* kitob yaxshi" misolidagi „*Men o'qigan...*“ birikmasiga aniqlovchi „gap“ning ega, kesimi deb qaraydilar. Haqiqatda shundaymi? Bu bo'laklar o'rtasida o'zaro gap aloqasi mavjudmi? Haqiqatda esa, bu bo'laklar o'rtasida ega, kesim aloqasining mavjudligini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni ko'rmaymiz. Misol: *Men o'qigan* kitob yaxshi; *Biz o'qigan* kitob yaxshi; *Sen o'qigan* kitob yaxshi; *Siz o'qigan* kitob yaxshi; *U o'qigan* kitob yaxshi; *Ular o'qigan* kitob yaxshi.

Bu misollardan ko'rinadiki, sifatdosh aniqlovchi so'zining logik sub'yekti bilan grammatik jihatdan ega, kesim aloqasiga, demak, gap aloqasiga, kirishmaydi. Bu hol, dastlab bo'laklar o'rtasida kechkanday: grammatik, moslikning bo'lmaganida yaqqol ko'rinadi.

Agar sifatdoshlar fe'l - kesim vazifasiga ko'chirilsa, ular tegishli affikslar orqali real sub'yekt bilan moslashib, gap aloqasini hosil qiladilar. Masalan: *Men o'qiganman*, *Biz o'qiganmiz*, *Sen o'qigansan*, *Siz o'qigansiz*, *U o'qigan (dir)*, *Ular o'qigan (lar)*.

Kesim holiga ko'chgan sifatdoshlarni aniqlovchi deb ayta olmaganimizdek, ularga sifatdosh deb ham qaray olmaymiz. Chunki, funksiya o'zgarishi sifatdoshlarning shakl va mazmunini ham o'zgartib yuboradi.

Demak, sifatdosh aniqlovchilar real sub'yektga grammatik jihatdan kesim bo'lolmas ekan, bundan, yana shunday xulosa ham kelib chiqadi: real sub'yekt; ham sifatdosh aniqlovchiga grammatik ega bo'lolmaydi. Darhaqiqat, agar „*Men o'qigan*“ kitob yaxshi, misolidagi „*.men*“, so'zi grammatik ega bo'lganda edi, uni qaratqich aniqlovchisi holiga keltirib bo'lmas edi. („*Mening o'qigan kitobim yaxshi*“).

I. A. Batmanov „Men o'qigan kitob...“ birikmasidagi „men“ - so'zi sifatdoshga nisbatan bosh kelishik holdagi aniqlovchi deb ko'rsatadi.

Sifatdosh aniqlovchilar oldidan kelgan real sub'yekt shaklan bosh kelishik kabi ko'rinsa ham, lekin asosiy xarakteriga ko'ra I. I Meshchaninov ko'rsatgan absolyut kelishigigiga ancha yaqin bo'lgan bir kelishikdir.

Qisqa, real sub'yekt ham aniqlovchiga nisbatan grammatik jihatdan ega holda shakllana olmaydi.

3.4. Sifatdosh aniqlovchilarining tarkibi.

Umuman, o'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilarni sostav e'tibori bilan uchga ajratish mumkin: sodda qo'shma, sostavli sifatdosh aniqlovchilar.

Yolg'iz bir so'zdan iborat bo'lgan sifatdosh aniqlovchilarni sodda sifatdosh aniqlovchilar deymiz: *ochilgan* paxta ... *to'qilgan* chit. ...

Birdan ortiq so'zlardan tashkil topib, ma'no jihatdan bir butunlikni hosil etgan aniqlovchilarga qo'shma sifatdosh aniqlovchilar deymiz: *o'ynab o'sgan joy*...

Bir necha so'zlar tarkibidan tashkil topgan aniqlovchilarga sostavli sifatdosh aniqlovchilar deymiz: *Sizning Moskvadan yuborgan* telegrammangizni oldim (sostavli sifatdosh aniqlovchi: *Sizning Moskvadan yuborgan* ...).

Qo'shma sifatdosh aniqlovchilarni quyidagi tiplarga ajratish mumkin:

1. Sifatdosh + sifatdosh: a) ikki bo'lishli sifatdoshdan: *boradigan bo'lgan* kishi. .. Bunday birikmada birinchi sifatdosh - asosiy, ikkinchisi - yordamchi ma`noni tashiydi. b) Bo'lishli - bo'lishsiz sifatdoshdan: *bo'lar - bo'lmas* gap...

2. *Ravishdosh + sifatdosh: yozib bo'lgan* student... *o'qib chiqilgan qaror*...

3. Ot + sifatdosh : *ro'y bergan* voqea. ..

a) Jo'nalish kelishigidagi ot + sifatdosh:

“Rad berma *talabga kirgan* kishiga”. (Go'ro'g'li)

“Qalbning toza tuyg'ularini *avjga solgan* bu uchrashuv Gulnor uchun bir ulug baxt bo'ldi“. (Oybek).

b) Tushum kelishigidagi ot + sifatdosh: Har minut sayin *luqma tashlagan* boy. .. (Oybek),

Nash`a bilan *nafas olgan* shunday jajji Gulnor uni qurshadi. (Oybek).

v) ot ko'makchi sifatdosh: *Vahimalar bilan to'lgan* Yormat... (Oybek).

g) ot + ravish + sifatdosh: *Do'sti yaxshi ko'rgan* yigit ...

d) son + ravish + sifatdosh: „*Bo', o'n besh – o'n olti orasida bo'lan* qoramtir lekin toza, samimiy qiz edi“. (Oybek).

Biz quyida aniqlovchi bo'lib kelgan har bir sifatdosh formasi haqida alohida to'xtaymiz. Ayrim sifatdoshlarning zamon tushunchasini va shunga bog'liq harakat belgilarini aniqlab kelishi barcha hollarda sifatdoshning morfologik formasi va leksik ma`nosi orqali tayin etilavermaydi. Shu bilan, bunday tushunchalarniig konkretlashishi asosan kontekst oqimiga bog'liqdir. Bunday hollar “morfologik grammatik kategoriya” bilan „sintaktik grammatik kategoriyaning” aynan bir narsa emasligini ko'rsatadi.

Sifatdosh predmetning harakat belgisini muayyan zamonga bog'liq holda ifodalaydi. Zotan, zamon (makon va fazo) dan tashqarida harakat belgisi ham bo'lmaydi.

- “gan” formasi

1) Bu forma o'tgan zamon harakat belgisini ifodalaydi: "Kishi hayot yo'lida boshdan kechirgan voqealar orasida baxtli deb o'ylagan zamonlarini yodlashdan harchoq zavqlanadi" (Oybek).

2) "-gan" formasi 4 fe'lga (*yot, tur, yur, o'tir*) qo'shilib kelsa, hozirgi zamonni ifodalaydi. Bu hol shu fe'llarning o'ziga xos semantik xususiyati bilan izohlanadi. Misollar:

a) "... tayyorlov punktida *yotgan* bu nav paxtani hali korxonaga tashib ham keltirgan emas". (Gazeta).

b) "... oldimizda *turgan* muhim vazifalar ana shulardan iborat". (Gazeta).

g) "O'z elimda men ham yurgan valla matman". (Olpomish)

Bu 4 fe'ldan yasalgan sifatdoshning "- gan" formasi kontekstning mazmuniga qarab, o'tgan zamonni ham ifodalaydi: Toshkengda *turgan* o'rtog'im Moskvaga jo'nab ketdi (bunday hollarda sifatdoshning zamoni ko'proq fe'l - kesim zamoniga bog'liq bo'ladi).

3) "- gan" kontekst mazmuniga ko'ra shart ma'nosini ifodalaydi va zamonda umumiy lashadi:

Cho'lda *yurgan* kishi ko'rar shunday qiyoni. (Olpomish)

4) "- gan" zamonda umumiylikni bildiradi. Bu xol ko'proq halq maqollarida uchraydi.

Aytgan *so'z* — otgan o'q.

Bunday sifatdoshlarda zamon tushunchasi ancha xiralashgani uchun ham, ma'noda sifatlariga ancha yaqin turadi.

5) "- gan" butunlay zamon tushunchasini ifodalamaydi (sifatlashadi):

"U boyaqishning nurididasi, etilgan qizi birdan g'oyib bo'ldi". (Oybek)

“ - y o t g a n ” f o r m a s i

1) Bu forma asosan predmetning hozirgi zamon davomli ish — harakat belgisini ifodalaydi.

Korxonalarimizda o'z normalarini oshirib bajarayotgan ishchilar ko'plab topiladi.

2) Shu bilan, kontekst mazmuniga ko'ra, bu forma ayrim hollarda o'tgan zamoni ham ifodalab keladi:

“Katta toshlar orasida yugurishib chiqayotgan qo'y va qo'zilar ko'rdik”. (Gazeta). “Biz Olagesga kelganimizda endigina ko'tarilib kelayotgan bulutlarni ko'rdik”. (Gazeta).

Bu misollardagi sifatdoshlarning o'tgan zamoni ifodalashi kontekst orqali, fe'l kesimining zamoni orqali o'qiladi. Bo'lib o'tgan harakatlarni hozirgi zamon formasida berilishi voqealarni obrazli ifodalash uchun xizmat qiladi. Demak bunday xol stilistik talabga ko'ra yuz beradi.

3) Kontekst mazmuniga ko'ra, hozirgi – kelasi zamoni ifodalab kelishi mumkin:

“ – digan ” – formasi

1) Kelajak zamoni ifodalaydi:

Bir yoqadan bosh chiqarsak, har qanday ishning *uddasidan* chiqadigan odamlarmiz. (Gazeta)

2) Hozirgi zamoni ifodalaydi:

“Toshkentning 4 dahasi *taniydigan* bu odamning oldiga qanday kiradi?”.(Oybek).

3) Hozirgi zamonda davomiylikni bildiradi: Uning ishlaydigan korxonasi uyidan yiroq emas.

4) Zamon umumiylikni bildiradi:

“Lekin ularning u ro'zadan bu ro'zagacha *beradigan* sadaqasi daryodan tomchi emasmi?” (Oybek).

5) Kontekst mazmuniga ko'ra o'tgan zamon takroriy harakat belgisini ifodalaydi: “Men bilan *yashaydigan* kampir bozorchi kampir edi.” (Oybek).

6) Predmetlarga xos doimiy harakat belgilarini ifodalab keladi. Bunday xollarda zamon tushunchasidan ajralib ma'noda sifatlashadi: “Balki mening *ko'radigan* ko'zim deb”.

“ - chi ” – formasi

Sifatdoshning bu formasi mana shunday xususiyatlarga ega.

1) Predmetlarning hozirgi zamon davomli harakat belgisini bildiradi:

Maktabga *qatnovchi* bolalar uchun konsert berildi.

Bu forma zamon tushunchasidan ajralib, (ko'pchilik hollarda) sifatlashadi va ma'no jihatidan aniqlanmishning doimiy belgisini ifodalab keladi: "Dunyodagi turli - tuman hodisalar va voqealar *haraktlanuvchi*, *o'zgaruchi* materiyaning turli shaklda gavdalanishidan iboratdir". ("Qisqa kurs").

"Bir tekis tin *olg'uchi* ko'kraklarda dil tetik". (H. Zohidiy).

Bu formaning kasb otimi yoki sifatdoshmi ekanini kontekstdan ajratamiz:

Uyquchi Turg'un keldi (ot - izohlovchi).

(Lekin, kitob o'quvchi Turg'un... birikmasida bu forma sifatdosh – aniqlovchi bo'lib keladi).

Demak, ayni formaga differentsial qarash lozim (gapda aniqlovchi bo'lib kelsa – sifatdosh, izohlovchi bo'lib kelsa – kasb oti).

"Oltay tili grammatikasi" da bu forma butunlay sifatdoshga kiritilmaydi.

Bunday sifatdoshlarning bo'lishsiz formasi ko'pchilik hollarda imkoniyatsizlikni ifodalab keladi va ma'noda sifatga ko'chadi:

Kiyik o'tmas yo'llardan qiyib o'tib boradi,

Quyvon yurmas yo'llardan quvib o'tib boradi.

(*Ravshanxon*).

"Yerga cho'pni tiqib qo'ysang, ko'karib *quloch yetmas* daraxt bo'ladi".

(*Oybek*).

Bunday sifatdoshlarning bo'lishli - bo'lishsiz formasi konkret manoni ifodalamaydi. Semantik jihatdan predmetning salbiy xususiyatini (yoqar - yoqmas odam...) yoki darajasini (quloqqa *eshitilar-eshitilmas* ovoz...)yoki miqdorini (bir qishga *yetar—yetmas* o'tin g'amladik) bildiradi. Harholda, bunday manolar kontekstning umumiy oqimi bilan bog'liqdir.

Bu forma harakatning kelajakda muqarrarligini ifodalaydi. Ba'zan, ma'no jihatdan sifatlariga ancha yaqin turadi (*kelajak* avlod).

“ - g u s i “ f o r m a s i

Bu forma ham juda siyrak qo'llaniladi, zamon etibori bilan kelasi zamoni ifodalaydi.

Kelgusi yil suvsiz qirlar bo'lib maydon.

(Qo'shiq)

Kelgusi janglar uchun hozir yigitcham uxlasin.

(H. Zohidiy)

“ - m i s h “ f o r m a s i

Sifatdoshning bu formasi hozirgi zamon o'zbek tilida juda siyrak uchraydi. Zamon etibori bilan bu sifatdosh ayrim hollarda o'tgan zamoni ifodalasa: *o'tmish* zafarlarni rosa kuylaymiz (*H. G'ulom*) ayrim hollarda zamoni umumiy lashadi.

Zamon ifodasi sifatdoshlarning eng xarakterli belgisidir. Agar sifatdosh zamoni ifodalamay qo'ysa, butunlay sifat kategoriyasiga o'tib ketadi:

Arg'umoqlar kishnasin deb yuboramiz yem,

Sovqatmasin jangchilar deb *qish o'tmas* kiyim.

(„Jangchilarga xat“)

U harkinga berdi pishiq, zo'r, *bukilmas* qo'shqanot.

(Jambul)

Bu misollardagi „*qish o'tmas*“, „*bukilmas*“ sifatdoshlari zamon tushunchasini ifodalaganlari uchun ham, sifatlashib ketgan.

Ayrim kuzatishlar sifatdosh aniqlovchilarning zamon ifodasi mavjud grammatika adabiyotlaridagiga qaraganda kengroq va murakkabroq ekanligini qo'rsatdi. Sifatdoshlarning zamonini faqat ularning shakliga qarab tayin etish yetarlik emasdir. Sifatdosh aniqlovchilarning leksik manosi ayrim hollarda kontekst va fel – kesimning harkateri orqali belgilanadi. Buni yuqorida keltirilgan misollardan payqash mumkin.

Yuqorida aytgilganlardan yana shu narsa ayon bo'ladiki, turli sifatdosh formalarining hozirgi davr o'zbek tilida qo'llanishi, tutgan o'rni, ahamiyati bir xil emas. Bu jihatdan hozirgi o'zbek tilida mavjud bo'lgan sifatdosh formalarini uchga bo'lish mumkin: 1) ko'p qo'llanadigan sifatdoshlar. Bularga: - gan, - yotgan, - digan formalari kiradi.

(Bulardan ayniqsa birinchisi juda ko'p ishlagiladi) 2) kam qo'llanadigan sifatdoshlar. Bularga: - chi, - ar formalari kiradi; juda siyrak uchraydigan formalar: -jak, -gusi, -mish.

Umuman, o'zbek tilidagi sifatdoshlarga formal emas, funksional yaqinlashish ularning doim xarakterda bo'lgan grammatik kategoriya ekanligini his etishga imkon beradi.

3.5. Sifatdosh aniqlovchilarda aniq va majhullik

O'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilarni aniq va majhullik jihatdan qo'llanishlariga ko'ra uchga ajratish mumkin: 1) grammatik va logik aniq; 2) grammatik aniq logik majhul; 3) grammatik va logik jihatdan majhul.

1) Quyidagi hollarda sifatdosh aniqlovchilar (sodda yoki murakkab holatda) ham grammatik, ham logik jihatdan aniq bo'lib keladi.

a) aniqlanmish bo'lib kelgan so'z sifatdoshdan anglashilgan harakat belgisining sub'yektini ifodalab kelsa: "har narsani lo'nda qilib *gapirishni sevgan* Qoratoy chidamsizlik bilan so'radi". (*Oybek*).

b) Aniqlanmish sifatdosh aniqlovchidan anglashilgan harakat belgisining sub'yekti kabi o'qilsa: Uzoq zamonlarni *boshdan kechirgan* keksa tog'...

2) Quyidagi hollarda sifatdosh aniqlovchilar grammatik aniq, logik majhul bo'lib keladi:

a) aniqlanmish kontekst mazmuniga ko'ra harakat belgisining ob'ektini bildirib kelsa:

Quloq solmas hechkim *aytgan* dodima. (*Olpomish*)

b) logik sub'yekt sifatdosh aniqlovchilardan oldin rejalashgan bo'lsa,

sifatdosh aniqlovchining grammatik aniq, logik majhul bo'lib kelishi shart:

Sen yozgan qonunni bu odamzod,
Kutib kelgan edi tinmay umrbod.

(“Xat”)

2) Quyidagi hollarda sifatdosh aniqlovchilar ham grammatik, ham logik jihatdan majhul bo'lib keladi:

a) „tomonidan“ so'zi bilan kelgan gaplarda:

“Birlashgan Olmaota kino studiyasi *tomonidan ishlangan*” Meni kutgil” degan kinoning syujeti ana shunday oddiydir.” (Gazeta)

Bunday gap konstruktsiyasi, bizning fikrimizcha, real sub'yektning rolini alohida chizib ko'rsatish uchun xizmat qiladi,

b) “bilan” ko'makchili gaplarda:

Shiorlar, plakatlar *bilan bezatilgan* zalga studentlar to'plandi. O't va quyuk tutun *bilan qoplangan* mashina dushman territoriyasiga tushdi“. (Gazeta).

v) Logik majhullikni grammatik aniq forma bilan berganda, gap mazmuniga halal keladigan bo'lsa: “Bundan so'ng uning xayoli kambag'al, *unutilgan*, qishloqi odamning o'g'liga tushdi”. (Oybek).

Ko'kka *ko'tarilgan* tog'lar qanday go'zal!

g) Sifatdosh aniqlovchidan oldin qaratqich kelishigida kelgan so'z logik sub'yekt bo'lmasa:

d) Sifatdosh aniqlovchining real sub'yekti eslatilmagan, yoki tushirilib qoldirilgan va yoxud noaniq bo'lgan paytlarda: “bir kun erta sozlab *parvarish qilingan* g'o'za tez amal qiladi, hosilga baraka qo'shiladi”. (Gazeta). *Obod qilingan* shahar....

Bayon qilingan fikrlardan shunday xulosalar kelib chiqadi:

1) O'zbek tilida sifatdosh aniqlovchilarning aniq yoki majhul bo'lib qo'llanishida ma'lum grammatik, stilistik normalar mavjuddir.

2) Aniq va majhullik ayrim hollarda sifatdosh aniqlovchidan oldin kelgan so'zlarning grammatik shakllanishi bilan ham bog'liqdir. Masalan: *Meni*

ko'rgan student... *Men ko'rgan* student... (Birinchi misoldagi sifatdosh aniqlovchi ham grammatik, ham logik jixatdan aniq; keyingi misolda esa, grammatik aniq, logik majhuldir).

“Bo’lgan” haqida

Bu sifatdosh mustaqil manoda juda siyrak uchraydi: “*Bo’lgan* voqealar esimda”. Ko’pchilik hollarda yordamchi manoda kelib, “*mavjud*”, “*bor*”, “*iborat*” kabi so’zlar bilan birikib, bir butun birikma holida o’zidan keyingi so’zni aniqlab keladi.

Misollar:

“Bu esa, *mavjud bo’lgan* qoidalarni amalda ko’rishni aniqlash natijasida vujudga keladi”. O’qishga *havasi bor bo’lgan* kishi tirishib o’qiydi. “*Qilmishi fisqu fasoddan iborat bo’lgan* Yago Otelloni Dezdemonadan ajratdi“, („Otello“)

Yana quyidagi so’z turkumlari bilan birikib keladi:

a) ravishlar bilan:

„Bu falokatlarga to’sqinlik qilishdan *ojiz bo’lgan* ikki ovsun shu kayfiyatda hasratlashar edilar” (*Oybek*).

b) Jo’nalish kelishigidagi otlar bilan:

v) Olmoshlar bilan:

O’zimizniki bo’lgan ishqni ham yulib tashlamoqchilar (*Oybek*).

g) Sifatdosh bilan:

Farg’onaga *ketadigan bo’lgan* kishi shu yerda

„Umuman, bunday aniqlovchi birikmalarda „*bo’lgan*“ sifatdoshning mustaqil leksik manosi ko’rinmaydi. Bu sifatdoshdan oldin kelgan so’zlarning leksik manosi yetakchi rol o’ynaydi, “*bo’lgan*” esa, u so’zlarning manosiga qo’shimcha ottenka beradi hamda harakat belgisi va uning zamoniga aniqlik kiritadi.

“DEGAN” HAQIDA

“Degan” sifatdoshi aniqlovchilik vazifasida mustaqil qo’llanilmaydi, balki boshqa so’zlar tarkibiga kirib, birikma holida otni aniqlab keladi. Bu

formaning o'ziga xos mano va stilistik „xususiyatlari bor.

Misollar:

“Men *Jambul degan* tog'ning yonida tug'ilgan ekanman”. (*Jambul*).

Folklor asarlarida kishi, hayvon, shahar otlari ko'proq „degan“ orqali beriladi.

„Kashal viloyatida *Surxayil degan* kampir bor ekan“. “Zamonida, Oqtosh viloyatida *Sultonxon degan* o'tdi“. (“Rustamxon” dostonidan).

Xalqning hikmatli so'zlari ham ayrim hollarda “degan” orqali beriladi. “Aytgan so'z – otgan o'q” degan maqol bor.

1. Aniqlovchili birikmada sifatdosh aniqlovchidan boshqa hil aniqlovchilar bo'lmasa, sifatdosh aniqlovchi bevosita o'z aniqlanishi oldidan keladi:

- Ayo shohim, Sizga “*aytar*” arzim bor.

(Olpomish)

- *O'qigan* kishi xor bo'lmaydi.

- *Maqtangan* odam xijolatda qolar.

2. Bir aniqlanishga har xil aniqlovchilar bog'lanib kelsa, tartib masalasi quyidagicha bo'ladi:

a) aniqlovchi birikmada sifatdosh aniqlovchidan tashqari sifat aniqlovchisi ham bor bo'lsa, oldin sifatdosh va undan keyin—sifat aniqlovchi, eng oxirda—aniqlanish keladi.

Misollar:

O'ynab *yurgan* sho'x bolalar bizning kelajagimizdir.

b) Ko'rsatish - belgilash olmosh aniqlovchi va sifat aniqlovchi ham bor bo'lgan birikmada, oldin - sifatdosh, so'ng-ko'rsatish - belgilash olmoshi, undan so'ng — sifat aniqlovchi, eng oxirda - aniqlanish keladi.

Misollar.

- Lekin, o'z otasi kabi *suygan* shu g'arib cholga bir tanga topib berishdan ojiz bo'lgani uchun, qattiq xafa bo'ldi. (Oybek),

- Chekadan *tomgan* u qutlug' qon uchun,
Oldik biz qonga qon.

(Turob To'la).

v) Son aniqlovchi ham bor bo'lgan birikmada oldin sifatdosh, so'ng - son, undan keyin - sifat aniqlovchi, eng oxirda - aniqlanmish keladi:

- *O'tgan yil qurilgan birinchi yangi laxta zavodi...*
- Musobaqada *yutib chiqqan* uchinchi futbol komandasi...

g) Agar sifatdosh ma'no etibori bilan sifatlashib ketgan bo'lsa, u holda sifat aniqlovchiga nisbatan o'rin masalasi farqsizdir:

- Nurday *o'tkir* ham *chiniqqan* po'lat bo'ldi. (Jambul)

d) Sifatdosh aniqlovchilarga bog'lanib, ularni aniqlab kelgan aniqlovchilar sifatdoshdan oldin keladi.

Misollar:

Yangi *ochilgan* (gul)...

- Yakgi o'quv yiliga *namunali tayyorlangan* maktab mukofot oladi
- *Chiroyli to'qilgan* (ro'mol)...

Bunday hollarla, tartib o'zgarishi bilan ma'no ham o'zgarib ketadi.

Shu bilan, folklor va badiiy adabiyotda quyidagi hollarni ham uchratamiz:

1. Sifatdosh aniqlovchi bilan aniqlanmish o'rtasiga kesim kirib qoladi:

Kuch va darmon,

Tomirda qon.

Sen gullatgan,

Yashnadi *zamon..* (Qo'tiq)

2. Turli aniqlovchilar o'rtasiga undov so'z kirib qoladi:

Sifatdosh aniqlovchining aniqlanmishdan so'ng kelishi deyarlik uchramaydi. Uchrasa ham, g'ayritabiiy holdir. Yuqorida bayon etilganlarga ko'ra, o'zbek tilidagi sifatdoshti alohida so'z turkumi sifatida mana

shunday tariflash mumkin:

Leksik manosiga ko'ra predmetning harakat belgisini ifodalab, gapda asosan aniqlovchi bo'lib keladigan, o'ziga xos morfologik belgilarga ega bo'lgan so'z turkumi sifatdash deyiladi.

Birdan ortiq bir xildagi sifatdash aniqlovchilar bitta aniqlanmishni teng aniqlab keladi: „Hech nima *bilmagan, tushunmagan* Gulnorning rangi o'chdi“. (Oybek).

Bunday aniqlovchilar ikkitadan oshiq bo'lsa, odatda oldingilari vergul bilan ajratilib, keyingisi oldidan bog'lovchi ishlatiladi:

Bolalar bog'chasi *o'ynagan, kulgan va yashnagan* bolalar bilan to'la.

Uyushib kelgan bir necha aniqlovchilar bir vaqtning o'zida bir necha uyushiq aniqlanmishni baravar aniqlab keladi.

Sifatdash aniqlovchilar har xil uyushib kelishi mumkin: „Kapitan Manziy dushman daryodan o'tish uchun ko'prik *tayyorlayotgan motorlashtirilgan* qismlarini o't ochib, to'zg'itib yubordi“. (Gazeta).

III bob bo'yicha xulosalar

Kesim funksiyasida kelgan sifatdash fe'llashadi va fe'lga xos xususiyatlarga ega bo'ladi (bu haqda yuqorida „Sifatdashning sintaktik funksiyasi" degan bobda gapirgan edik).

O'zbek tilida sifatdashning fe'l – kesim funksiyasida qo'llanishiga doir bir necha misol keltiramiz.

Biroq ayni misollarda sifatdash formalari tasvirni jonli ifodalashda, harakat dinamikasini obrazli tasvirlashda o'ziga xos semantik, stilistik ahamiyatga egadir. Bu hol sifatdashning asosiy semantikasi bilan izohlanadiki, sifatdash hatto fe'llashib, kesim bo'lib kelganda ham, o'zining semantikasini qisman saqlab qoladi.

Yana bazi misollar:

1. “Rayonning madaniyat uyi shior va plakatlar bilan *bezatilgan*“. (Gazeta).

Bu misollardan ko'rinadiki, semantik va stilistik jihatdan kesim - sifatdash bilan fe'l o'rtasiga tenglik belgisini qo'yib bo'lmaydi. Lekin kesim bo'lib kelgan

sifatdosh grammatik jihatdan butunlay fe`l xususiyatlariga (moslashish va shu kabilar) ega bo`ladi va fel sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirilgan misollarda sifatdoshlar “sof” holida fe`llashgan va gapda fe`l — kesim bo`lib kelgan.

Shu bilan, sifatdoshlar o`zbek tilida qo`shma fe`llarning turli shakllarini xosil qilishda ham muhim rol o`ynaydi va qo`shma fe`l - kesimning tarkibiy bir qismi bo`lib, xizmat qiladi. Masalan: *ko`rgan* edim, *ko`rar* edim va shu kabilar.

Bunday misollarda sifatdosh qo`shma fe`l - kesim sostavida asosiy manoni tashiydi.

Qo`shma fe`lning har ikki elementi sifatdosh formasidan tashkil topishi mumkin: *yozgan ekan*.

Quyidagi misollarda sifatdoshlar qo`shma fe`l kesim sostavida yordamchi manoni tashiydi: *yozib bo`lganman*, *yozib bo`lgansan*, *o`qib chiqqanman* va shu kabilar.

Sifatdosh gapda ot funksiyasida ham qo`llanadi. Bunday hollarda xuddi otlar kabi gapda asosan ega, to`ldiruvchi bo`lib keladi. Bu o`rinda ham sifatdoshlarning o`ziga xos leksik manosi (harakat belgisi va zamon tushunchasi) qisman saqlanadi.

Masalan: “*O`qigan o`zar*” gapini olaylik. Bu gapda otlashib ega bo`lib kelgan sifatdoshning ma`no xususiyatiga diqqat qiling. Shu gapdagi „*o`qigan*“ so`zi, ham predmet (odam), ham uning belgi - xususiyatini ifodalab kelgan. Qisqasi, qim o`zar? va qanday odam o`zar? so`roqlariga javob shu bir so`z - „*o`qigan*“ so`zidan kelib chiqadi.

Yana „*O`qimaganni o`qigan yengar*,“ misolini olaylik. Bu misolda sifatdoshlar otlashib, to`ldiruvchi va ega vazifasida kelgan. Shu gapning ega va to`ldiruvchisi bo`lib kelgan predmetlar va u predmetlarning xususiyatlari ham otlashib kelgan sifatdoshlardan o`qilib turadi.

Otlarga xos, affikslar bilan otlashib, gapda ot o`rnida, kelgan sifatdoshlar.

Umumiy xulosalar.

Bu ish orqali ingliz va o'zbek tillaridagi sifatdoshning asosiy tabiatini ochishga intildik. Bu ishdan kelib chiqqan asosiy xulosalar mana shulardan iborat:

1) Hozirga qadar fe'l sistemasiga kiritib qaralgan sifatdoshni alohida so'z turkumi qilib ajratish mumkin va buning zarurligini ko'rsatdik.

So'z turkumlari gap bo'laklaridan kelib chiqqan. Har bir so'z turkumining ajralib chiqib, o'ziga xos leksik mano kasb etishi va morfologik belgilar bilan farqlanishi aslida gap bo'laklarining funktsiya e'tibori bilan tabaqalanishlari tufayli yuz bergan. Ana shuning uchun ham, so'z turkumini ajratishda sintaktik funktsiya va leksik ma'no yetakchi belgilar qilib olinadi, morfologik belgilar ana shu yetakchi belgilarning bevosita natijasidir.

2) O'zbek tilida sifatdosh aniqlovchilar gapmi? gap emasmi? masalasi temamizning markaziy masalalaridan biri bo'ldi. Hozirgacha problema holida qolib kelgan bu masalaning murakkabligi shundaki, bu masala sodda va qo'shma gaplar sintaksisining asosiy masalalari bilan uzviy bog'langandir. Bu haqda yurg'izgan mulohazalarimiz sifatdosh aniqlovchilarni umuman *sodda* gaplar sintaksisiga kiritib qarash imkoniyatini keltirib chiqardi. Bu xulosaning amalda tadbiiq etilishi o'qish — o'qitish ishlarida sifatdosh aniqlovchilar bilan bog'liq bo'lgan anarxiyani bartaraf qilar deb o'ylaymiz.

3) Ayrim sifatdosh formalarining kontekst oqimida olib tekshirilishi ularning turlicha kontekstda turlicha mano-mazmun kasb etishini va ayrim sifatdoshlarga nisbatan qo'llanib kelgan turli - tuman terminlarning naqadar shartli ekanini ko'rsatib berdi. Ayrim sifatdosh formalari kontekst ichida tekshirilganda, ularning zamon tushunchasini asos qilib oldik. Sababi: harakat belgisi zamon bilan bog'liq; bundan tashqari, sifatdosh zamon tushunchasidan ajralishi bilan, sifatlashib ketadi; *uchar* qush, *ko'rar ko'z*.

4) Sifatdosh aniqlovchilarning grammatik jihatdan aniq yoki majhul bo'lib qo'llanishida malum grammatik, stilistik normalar borligini ko'rsatdik.

Bu ish orqali sifatdosh haqidagi barcha masalalar hal etildi, deyishdan juda

uzoqdamiz. Yangi til bilimining yutuqlarini o'zbek tilidagi sifatdoshga tadbiq etish yo'lidagi bu birinchi tajribada bir qator kamchilik va nuqsonlarning bo'lishi muqarrar. Kelgusida bu nuqsonlarni payqash va tugatishda mutaxassislarimizning yordam ko'rsatishiga umid bog'laymiz.

Absolyut kelishikda kelgan so'z sifatdosh aniqlovchi bilan bir butunlikni (gapni emas) tashkil etib, birikma holda aniqlanmishga bog'lanib keladi.

Masalan:

„*Biz tuzgan* plan muhoqama “qilindi“. gapida aniqlovchi faqat «*tuzgan*», emas balki „*biz tuzgan*“ birikmasidir.

Bu hol absolyut kelishikdagi so'zni sifatdosh aniqlovchilari sostaviga kiritib qarash imkoniyatini tug'diradi.

2. Sifatdosh aniqlovchilarning boshqaruvchilik xususiyatiga ham gaplikning bir belgisi deb qarab bo'lmaydi. Bu xususiyat boshqa tillardagi sifatdoshlarda ham mavjud. Masalan; rus tilida: “*Читающий книгу мальчик засмеялся*” gapidagi sifatdosh “*книгу*” so'zini boshqarib keladi, lekin shunga qaramay, u aniqlovchi gap emas, sifatdosh oborotidir.

3. Bu o'rinda o'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilarning o'z aniqlanmishlaridan ajratadigan gaplik intonatsiyasi yo'qligini ham eslatib o'tamiz.

Biz hozirgacha asosiy grammatik printsiplar haqida to'xtadik. Lekin yuqorida keltirilgan grammatik printsiplar mazmundan ajralgan narsalar emas. U grammatik printsiplarning mazmun jihatdan mohiyatini quyidagicha belgilaymiz.

Grammatik kategoriya logik kategoriya bilan dialektik birlikda bo'lgani holda, ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlari, belgilari, farqlari ham bor. Sifatdosh aniqlovchilarga statik emas, funktsional qarash forma bilan mazmunning dialektik birligi va bu birlikning qarama-qarshi tomonlarini ham ochishga yordam beradi. Mana shu nuqtai nazardan o'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilarni taxlil qilib qo'raylik. „*Karim o'qigan*“. birikmasi shu holda predikativ aloqali bir gapdir. Bu birikmani boshqa bir vaziyatga ko'chirsak, masalan „*Qarim o'qigan* hikoya qiziq ekan“ holda gap tuzsak, bu yangi gapda

„*Qarim o'qigan...*“, birikmasi logikada predikativlik birikmadan (demak gaplikdan) chiqib, attributlashadi. Bu birikmaning predikativlik xususiyati ikkinchi o'ringa ko'chadi. Endi logikada asosiy fikr Karim haqida emas, balki uning tomonidan o'qilgan hikoya haqida boradi.

Demak, logik jihatdan aslida real sub'yektga nisbatan ob'yekt bo'lgan „*hikoya*“ so'zi ham, ob'yektlikdan chiqib, sub'yektlashadi. Ob'yektlik holati ikkinchi o'ringa ko'chadi. Qisqasi „*Karim o'qigan...*“ birikmasi tafakkurimizda hikoya „qiziq ekan“ gapiga nisbatan logik jihatdan nisbiy mustaqil gap kabi o'qilmaydi.

Logikada sub'yektalashgan ob'ekt – „*hikoya*“ ni grammatik jihatdan *faqat ega* deb qaraganimizdek, logikada attributlashgan predikativ birikma - „*Karim o'qigan...*“ ni ham grammatik jihatdan *faqat* aniqlovchi deb qaraymiz.


Umuman, yuqoridagi tahlil asosida logik kategoriya bilan grammatik kategoriya o'rtasidagi konkret munosabatni shunday belgilaymiz: „*Karim o'qigan*“ hikoya, birikmasi logik jihatdan *attributlashgan predikativ* birikma, grammatik jihatdan *faqat aniqlovchidir* (birikma holida) „*hikoya*“ so'zi esa, logikada *sub'yektlashgan ob'yekt*, grammatik jihatdan *faqat egadir*.

„*Men ko'rgan odam keldi*“ misolida ham ayni holni ko'ramiz. Bu gapda „*men ko'rgan...*“ birikmasi logikada attributlashgan predikativ birikma, grammatikada faqat aniqlovchi birikmadir; „*odam*“ so'zi logikada sub'yektlashgan ob'yekt, grammatik jihatdan faqat egadir.

Bunday hollarda grammatik forma bilan mazmun o'rtasida yuz bergan ziddiyat tasodifiy emas, albatta.

Yuqorida keltirilgan misollarni mana shunday sxemada ko'rsatish mumkin.

1. „*Karim o'qigan hikoya qiziq ekan*“.



sub`yektlashgan ← hikoya → ega
 ob`yekt

2. “Biz tuzgan plan muhokama qilindi”.

attributlashgan ← Biz tuzgan (...) → aniqlovchi birikma
 predikativ birkma

sub`yektlashgan
 ob`yekt ← plan → ega

3. “Men ko`rgan odam keldi”.

attributlashgan ← Men ko`rgan (...) → aniqlovchi birikma
 predikativ birkma

sub`yektlashgan
 ob`ekt ← odam → ega

Agar sifatdosh aniqlovchi birikmani ergash gapning bironta turi bilan qiyos qilib ko`rsak, masala yanada oydinlashadi.

Masalan, „*Sen kelsang*, men institutga boraman” gapini olaylik. Bu misoldagi shart ergash gap („sen kelsang”) ham logik, ham grammatik jihatdan qat’iy chegaraga ega. Chunonchi, “*Sen kelsang*” birikmasi bosh gapga nisbatan chegaralangan (logik, intonatsion va grammatik jihatdan). Shu bilan, bu shart gapning o`zi ichida shakllangan (mustaqil) ega va kesim aloqasi mavjuddir (sen—ega, kelsang—kesim). O`zida ega tasavvurini ham ifodalagan kesim —„kelsang” yolg`iz holda ham gap bo`la oladi (*kelsang*, men institutga boraman).

Sifatdosh aniqlovchilariga kelsak, ularda tamom boshqacha holni ko`ramiz.

Ana shuning uchun ham, sifatdosh aniqlovchi birikmali gap mazmunan qo'shma fikrni emas, *sodda* fikrni ifodalaydi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa: o'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilar ham grammatik, ham logik jihatdan ergash gapning asosiy talablariga javob bera olmaydi, provardida, gap bo'la olmaydi.

Shunday ekan, o'zbek tilidagi sifatdosh aniqlovchilarni qo'shma gaplar tarkibiga emas, *sodda* gaplar tarkibiga kiritib qarash nazariy jihatdan to'g'ri bo'lib chiqadi va amaliy jihatdan o'qish-o'qitish ishlarimizda bu masalada yuz berib kelayotgan anarxiyani bartaraf qiladi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'lning sifatdosh shakli asosan *-gan*, *-yotgan*, *-digan* morfemalari bilan yasaladi; *-r/-s* morfemasi bilan yasaliş juda oz uchraydi; *-ajak*, *-mish*, *-gusi*, *-asi* affikslari bilan esa hozirgi o'zbek tilida sifatdosh deyarli yasalmaydi.

g tovushi bilan boshlanadigan sifatdosh yasovchisi bilan bunday morfema qo'shiladigan asos oxiridagi tovush orasida zich sintagmatik munosabat voqe bo'ladi. Bunday o'zaro ta'sir natijasida ushbu morfemalarning allomorfemalari va shularga bog'liq holda *g* fonemasining *k*, *q* allofonemalari yuzaga kelishi yuqorida bir necha marta ta'kidlandi.

Sifatdosh yasovchi - *gan* affiksi bo'lishli va bo'lishsiz shakldagi asosga qo'shilaveradi. Nutqda eng ko'p uchraydigan bu sifatdosh quyidagi shakl va vazifalarda ishlatiladi:

1. Sifatlovchi bo'lib keladi; bunda - *gan* affiksining o'zi leksema shakl xosil qiladi. Undan keyin boshqa affiks odatda qo'shilmaydi.

2. Ba'zan *-gan* affiksidan keyin sonlovchi va turlovchi qo'shiladi, natijada I *gan + S + Tr* tarkibi namoyon bo'ladi. Qaysi turlovchi bilan ishlatilishiga qarab sintaktik vazifada keladi. Bu tur misollarda asli sifatdosh sifatlovchi bo'lib kelgan, lekin sifatlanmish tushirilgani sababli uning tarkibidagi sonlovchi va turlovchi sifatdoshga qo'shilgan: *o'tirgan kishilar > o'tirganlar* kabi. Ana shunday holatga nisbatan sifatdoshning otlashuvi haqida gapiriladi.

3. Sonlovchi bilan turlovchi oralig'ida nisbatlovchi xam qatnashsa, I *gan + S*

+ Nch + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi. Bu tur misollarda ham asli sifatdosh sifatlovchi bo'lib kelgan, lekin sifatlanmish tushirilgani sababli unga qo'shilgan sonlovchi, nisbatlovchi, turlovchi sifatdoshga qo'shilib, otlashuv voqe bo'lgan: *bu odamni ko'rgan paytimda > ko'rganimda* kabi.

4. Sifatdoshga sonlovchi, nisbatlovchi, turlovchi qo'shilib keladigan barcha hollarga nisbatan sifatlanmishning tushirilgani haqida gapirib bo'lavermaydi. Ot leksemaga xos morfemalarning sifatdoshga qo'shilib kelishi bu yerda sintaktik transformatsiya bilan bog'liq holda voqe bo'ladi (Bu hodisa haqida o'z o'rnida gapiriladi).

5. *-gan* affiksidan keyin *-lik* substantiv shakl yasovchisi ham qo'shilib keladi, natijada "... I *gan* + *lik* + Sb + Nch + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi. Bu tarkibda sintagmatik munosabat tufayli *-lik* affiksi oxiridagi *k* shovqin tovushi intervokal holatda *g* ovoqli tovushiga almashadi, natijada *k* fonemasining *g* allofonemasi namoyon bo'ladi.

6. Ayrim tarkiblar ko'makchi qatnashuvi bilan tuziladi ko'makchining turiga qarab sintaktik vazifa bajaradi, "...I *gan* + S + Nch + (Tr + ko'makchi)" tarkibi namoyon bo'ladi.

7. Bir qancha qurilmalar tarkibida birlik va bosh kelishik morfemalaridan keyin *-day/-dek* affiks-ko'makchisi qatnashadi, natija- da I *gan* + Sb + (Trb - day)" tarkibi namoyon bo'ladi. Bunday tuzilishli leksemashakl xollovchi vazifasida keladi.

8. Ayrim kurilmalarda birlik va bosh kelishik morfemalaridan keyin 'xolat' ma'nosini ifodalaydagan *-cha* affiks ko'makchisi qo'shiladi, natijada "...I *gan* + Sb + (Trb+cha)" tarkibi namoyon bo'ladi. Bunday tuzilgan leksemashakl hollovchi vazifasida keladi.

- *yotgan*, - *digan* affiksi bilan yasalgan sifatdosh quyidagicha shakl va vazifalarda ishlatiladi:

1. Sifatlovchi bo'lib keladi, shunga ko'ra *-yotgan*, *-digan* morfemasidan keyin boshqa grammatik ko'rsatkich qo'shilmaydi, sifatdosh yasovchisining o'zi leksemashakl hosil qiladi.

2. Sifatlanmish tushirilib, uning grammatik ko'rsatkichlari sifatdoshga

qo'shiladi, otlashish yuz beradi, natijada "...I *yotgan* // *digan* + S + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi; odatda o'rin kelishigi shakli qo'shib, payt hollovchisi vazifasida keladi:

3. Yuqoridagi tur qurilish tarkibida nisbatlovchi qatnashsa, ".*yotgan* + S + Tr" tarkibi namoyon bo'ladi. Tushum kelishigi shakli qo'shilgan ushbu qurilmalar vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelgan. -r / -s morfemasi bilan sifatdosh yasalishi juda oz voqe bo'ladi; odatda bo'lishsiz shakldan keyin qo'shiladi, shunga ko'ra -s allomorfemasi qatnashadi, ushbu allomorfemadan keyin boshqa grammatik ko'rsatkich qo'shilmaydi, sifatlovchi vazifasida keladi.

-*O'tar* - *o'tmas* kabi takror leksemada birinchi a`zoga bu morfemaning -r allomorfemasi, ikkinchi a`zoga -s allomorfemasi qo'shiladi; bunday leksemashakl hollovchi vazifasida keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Prezident I.A.Karimovning asarlari.

1. **I.A.Karimov** Наша высшая цель – независимость и процветание Родины, свобода и благополучие народа Доклад на первой сессии Олий Мажлиса Республики Узбекистан второго созыва от 22.01.2000 – Т.:Узбекистан. 2000.Т.8.-С. 322-340
2. **I.A.Karimov** Гармонично развитое поколение-основа прогресса Узбекистана. Ташкент.1998.стр.156-168
3. **I.A.Karimov** Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga e'tibor. – Tashkent, Uzbekistan.2009, p.14

II. Meyoriy xujjatlar

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy O'rta maxsus Talim Vazirligi 2405 Buyrug'i. "Magistratura to'g'risidagi nizom, 2012yil, 29 oktyabr. 415-son buyrug'i.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24iyuldagi PF-4456-son Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-1875 sonli qarori.

III. Rus va o'zbek tillaridagi adabiyotlar.

7. **Аничков А.А.** Методика обучения английскому языку. Москва ВШ. 1973, 240 p
8. **Бархударов Л.С.** Структура простого предложения современного английского языка. М., 1966. 250 p.
9. **Бархударов Л.С., Штелинг Д.А.** Грамматика английского языка. М., 1965, 580 p.
10. **Блох М. Я.** Теоретическая грамматика английского языка. М., 2005, 380
11. **Бўронов Ж.** Инглиз ва ўзбек тилларининг қиёсий грамматикаси. Т. Ўқитувчи, 1974, 280 б.
12. **Ирискулов М.Т.** Лекции по теоретической грамматике английского языка. Т. 2004, 240 с.
13. **Качалова В.А.** *Грамматика английского языка.* М., 2004. 400p
14. **Ляховицкий А.В.** Лингвистические основы обучения иностранным языкам. Москва, ВШ, 1983, 150 p
15. **Миролюбов А.А.** Общая методика преподавания иностранных языков. Москва, ВШ. 1978, 300 p
16. **Мухин А.М.** Структура предложений и их модели. Л.. 1968. 354 p
17. **Плоткин В.Я.** Грамматические системы современного английского языка. Кишинев, 1975, 240 p
18. **Почепцов Г.Г.** Конструктивный анализ предложения. Киев, 1971, 150
19. **Резник Р.В.** Практическая грамматика английского языка. М., 2002,

- 400р
20. **Рогова В.В.** Методика обучения английскому языку. Москва ВШ. 1988, 350р
 21. **Смирницкий А.И.** Морфология английского языка М., 1955 , 480 с.
 22. **Смирницкий А.И.** Синтаксис английского языка. М., 1966, 360 с.
 23. **Худяков А.В.** Теоретическая грамматика М. ВШ, 2007,248 с.
 24. **Штелинг Д.А.** Грамматическая семантика английского языка. М., 1996, 300р
 25. **Кобрина А.В.** Теоретическая грамматика английского языка. Москва 2010, 340 бет
 26. **Абдуазизов А.** Фонологияда белгиларнинг даражаланиши // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Т.:УзМУ, 2003. 21- 25 б.
 27. **Абдуазизов А.** О составных частях когнитивной лингвистики // Хорижий филология, 2007, 3-сон.5-6 б.
 28. **Александрова О.В.** Некоторые вопросы логики, методологии и философии языка. // Вопросы языкознания, 1985. № 6. - С. 70-76.
 29. **Александрова О.В., Кубрякова Е.С.** Дискурс. В кн.:
 30. **Алпатов В.М.** Система личных местоимений 1-го и 2-го лица в современном японском языке // Теория и гипотеза местоимений. М.: Наука, 1980.
 31. **Алиатов З.М.** Япония: язык и общество. М.: Муравей.
 32. **Андреева Е.С.** Диалектика текста. Опыт логиколингвистического синтеза. — М.: УРСС, 2001. -121 с.
 33. **Апресян Ю.Д.** Лексическая семантика. Синонимические средства языка. - М.: Наука, 1974.-264 с.
 34. **Апресян Ю.Д.** Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира//Семиотика и информатика. 1986, выш. 28. - С. 5-33.
 35. **Арзикулов Х.** Речевая система и её модели (на материале французского языка). Автореф. дисс. докт. филол. наук. - СПб СПб. у-т, 1994. - 35 с
 36. **Аристоталь, Сочинения.** - М.: Мысль, Т.1, 1976; Т.2, 1978.
 37. **Арно А., Ваксло К.** Бсеобщая рациональная грамматика.
 38. **Арутюнова Н.Д.** Фактор дресата // Известия АН СССР, Серия языка и литературы 1981 №4-С,356-367.
 39. **Арутюнова Н.Д.** Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт.- М.: Наука, 1988.-341 с.
 40. **Арутюнова Н.Д.** Дискурс. В кн.: Лингвистическая энциклопедия.- М., 1990.-С. 136-137.
 41. **Архипов И.К.** «Знак-предмет» и знак-ситуация: текст и дискурс. В кн.: Архипов И.К. Человеческий фактор в языке,- СПб., 2003.-С. 97-104.
 42. **Ашурова Д.У.** Производное слово в свете коммуникативной теории языка. - Т.:Фан, 1991.-100 с.
 43. **Базаров О.** Ўзбек тилида даражаланиш. ДДА. - Т.: Тилшунослик институти, 1997.- 496.

44. **Бакиева Г.Х.** Идеи и методы современной лингвистики текста в преподавании русского языка.- Т.: Ўқитувчи, 1992.-158 с.
45. **Бакиева Г.Х.** Лингвистические основы анализа художественного текста. Автореф. дисс. докт. филол. наук. - Т.: УзГУМЯ, 1993.-46 с.
46. **Баранов А.Г.** Текст в функционально - прагматической парадигме. Учебное пособие.- Краснодар, 1988- 90 с.
47. **Бегматов Э.** Нотикнинг нодир бойлиги. -Т., 1980.
48. **Беланже М.А.** Хаос, сложность и Гюстав Гийом //Лингвистика на исходе XX в.: Итоги и перспективы. Тезисы международной конференции. 4.1-М.: Филология, 1995.-С.43-44.
49. **Бенвенист Э.** Общая лингвистика - М.: Прогресс, 1974.-447 с.
50. **Бергельсон М.Б.** Дискурсивные маркеры как часть речи // Типология языка и теория грамматики. СПб.: Нестер- История, 2007.-С.25-27.
51. **Блакар Р.М.** Язык как инструмент социальной власти. В кн.: Язык и моделирование социального взаимодействия. - М.: Прогресс, 1987. - С. 88-125.
52. **Богданов В.В.** Речевое общение: прагматические и семантические аспекты - Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. -89 с.
53. **Богданов В.В.** Текст и текстовое общение. Санкт- Петербург: Изд-во СПб у-та, 1993.-68 с.
54. **Богданов В.В.** Семантикоцентризм и формацентризм в мировой лингвистике XX века. - В кн.: Структурная и прикладная лингвистика. Вып. 5. - Санкт-Петербург: Изд-во С-Пб у-та, 1998.
55. **Бодуэн де Куртенэ И.А.** Избранные труды по общему языкознанию. М.: Изд-во АН СССР, 1963, т.1,-284 с.
56. **Бодуэн де Куртенэ И.А.** Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН СССР, 1963.Т 2.-391 с.
57. **Бозоров О.О.** Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши. НДА.- Фарғона, 2004. - 216.
58. **Бондарко А.В.** Временная локализованность. В кн.: Теория функциональной Грамматики. - Л.: Наука, 1987.-С. 210-233.
59. **Борботько В.Г.** Принципы формирования дискурса. От психолингвистики к лингвосинергетике. - М.: Ком Книга, 2007.-288 с.
60. **Будагов Р.А.** Язык - реальность - язык. - М.: Наука, 1983. -262 с.
61. **Бурлакова В.В.** Дейктические категории в тексте // Предложение и текст: семантика, прагматика и синтаксис,- Л.: Изд-во ЛГУ, 1988.- С.85-88.
62. **Бюлер К.** Структурная модель языка. В кн.: Звегинцев В.А История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях, ч.2. - М.: Учпедгиз, 1960.-С.27-36.
63. **Бюлер К.** Теория языка. Репрезентативная функция языка.- М., 1993

64. **Вандервекен** Д. Небуквальные речевые акты. В кн.: Концептуализация и смысл. - Новосибирск: Наука, 1990.- С. 31-61.
65. **Вежбицкая** А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики.- М.: Языки славянской культурьх, 2001.-272 с.
66. **Вендлер** З. Иллокутивное самоубийства. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Выш. 16. Лингвистическая прагматика. - М: Прогресс, 1985.-С.238-250.
67. **Витгенпггейн** Л. Философские работыг. М., 1994., ч. 1.
68. **Вишнякова** О.Д. Функционально-когнитивная парадигма как сфера концентрации линвистической мысли в наступевшим столетии // Филологические науки, 2003, № 6.-С. 36-42.
69. **Воинов В.В.** Социально - оиночни номинации уконтексти культуры США. - Киев: Либидь, 1994. -143 с.
70. **Волков А.Г.** Язык как система знаков. - М.: Изд- во МГУ, 1966. - 86 с.
71. **Вольф** Е.М. Функциональная семантика оценки. М.: Наука, 1985.- 279с
72. **Гадамер Х.Г.** Истина и метод. Основы философской герменевтики. - М.: Проресс, 1988. - 704 с.
73. **Гак В.Г.** Прагматика и языковое варьирование. В кн.: Гак В.Г. Языковые преобразования. - М., 1998. -С. 554 - 586.

IV.Xorijiy tillardagi adabiyotlar.

74. Iriskulov M.A. Ruldashv A.M Theoretical Grammar of the English Language.Tashkent,2008,208 pages
75. Close R.A. A.Reference Grammar for students of English.Ldn.,1977.
76. Fries Ch.The Structure of English.1951,248p
77. Plyish B.A. The structure of Modern English.M.-L.,1971,380 p
78. Iofic L.L., Chakhoyan L.P. Readings in the Theory of English Grammar.Lelingrad,1972,440
79. Irnetyeva N.F.,Barsova O.M.,Blokx M.Y.,Shapkin A.P. Theoretical English Grammar.Moscow,1969.220p
80. Khaimovich B.S.,Rogovskaya B.I A course in English Grammar,Moscov,1967,300p
81. Quirk R.,Greenbaum S.,Leech G.,Svartvik J.A Grammar of Contemporary English.Lnd.,1972,1040 p/
82. W.N.Francis.The Structure of American English/New York,2008,450

V.Internet veb saytlari

- 1.www.education.co.uk
- 2.www.englishclup.uz
- 3.www.grammarstudies.com
- 4.www.grammatika.ru/adjectives/html